

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI
PSIXOLOGIYA KAFEDRASI**



**PSIXOLOGIK TADQIQOT NATIJALARINI QAYTA
ISHLASH METODLARI VA TEXNOLOGIYALARI**

fanidan zamonaviy pedagogik texnologiya asosida tayorlangan

O'QUV-USLUBIY MAJMUA

Bilim soxasi: 100000 - Gumanitar
Ta'lim sohasi: 210000 – Sotsiologiya va psixologiya
Ta'lim yo'palishi: 60110100 - Psixologiya (amaliy psixologiya)

Guliston – 2021

Fanning o'quv uslubiy majmuasi O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi 2020 yil 25 avgustdagi 744 - sonli buyrug'i bilan (buyruqning 2-ilovasi) tasdiqlangan "Psixologik tadqiqot natijalarini qayta ishlash metodlari va texnologiyalari" fani dasturi asosida tayyorlangan.

Tuzuvchi: D. R. To'rayeva "Psixologiya" kafedrasida o'qituvchisi (PhD) _____

J. T. Mirzayev. "Psixologiya" kafedrasida o'qituvchisi _____

Taqrizchilar: Psixol.f.n (PhD) Sharapova S _____

Katta o'qituvchi O'.Shukurova _____

O'quv-uslubiy majmua Guliston davlat universiteti Ilmiy kengashi tomonidan ko'rib chiqilgan va o'quv jarayonida qo'llashga tavsiya etilgan.

Mazkur o'quv-uslubiy majmua "Psixologik tadqiqot natijalarini qayta ishlash metodlari va texnologiyalari" kursidan Vazirlikning 2017 yil 1 mart 107-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim o'quv rejalari fanlarining yangi o'quv majmualarini tayyorlash bo'yicha uslubiy ko'rsatma" asosida yaratilgan

O'quv-uslubiy majmua zamonaviy pedtexnologiya talablariga mos ravishda ishlanib, unda o'quv maqsadlari, nazorat savollari va mustaqil ish topshiriqlari keltirilgan.

MUNDARIJA

I. O'QUV MATERIALLARI	5-129
1.1. MA`RUZA MATERIALLARI	5
1.2. SEMINAR MASHG'ULOTLARI.....	66
II. MUSTAQIL TA`LIM MASHG'ULOTLARI	87
III. ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	89
IV. GLOSSARIY	91
V. ILOVALAR	93
5.1. Fani bo'yicha fan dasturi.....	93
5.2. Fani bo'yicha ishchi dasturi.....	101
5.3. Tarqatma materiallar	118
5.4. Testlar	121
5.5. Nazorat savollari	127

KIRISH

Mazkur o'quv-uslubiy majmua oliy ta'lim muassasalarining pedagogika va psixologiya yo'nalishi professor-o'qituvchilari va talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib, u "Psixologik tadqiqot natijalarini qayta ishlash metodlari va texnologiyalari" fanining mazmuni va mohiyatini innovatsion ta'lim texnologiyalari orqali mazkur fanni o'qitishning samaradorligini oshirishga qaratilgan. Shuningdek, o'quv-uslubiy majmuada innovatsion ta'lim texnologiyalari, psixologiya fanida matematik metodlarning qo'llanilish tarixi, fanning mazmun mohiyati, tarkibiy tuzilishi, dastlabki psixologik tadqiqot natijalarini qayta ishlash metodlari, psixologiyada matematik metodlarning tutgan o'rniga oid masalalar batafsil yoritilgan bo'lib, oliy ta'lim muassasalaridagi o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etishga qo'yilayotgan zamonaviy talablar asosida mashg'ulotlarni tashkil etish metodikasi noan'anaviy ishlanmalar orqali keltirilgan. Mazkur o'quvmetodik majmuadan oliy ta'lim muassasalaridagi ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil qilishga hamda talabalarning mustaqil ta'limini tizimli yo'lga qo'yishda foydalanish tavsiya etiladi.

I. O'QUV MATERIALLARI.

MA'RUZALAR

III-semestr

1-mavzu. Matematik statistikaning asosiy tushunchalari

Reja:

1. Matematik statistika, tavsiflovchi va induktiv statistika tushunchalari.
2. Ko'plik haqida tushuncha.
3. Bosh ko'plik, tanlama va reprezentativlik tushunchalari.
4. O'lchov shkalalari, o'zgaruvchilar va ularning turlari.

Tayanch so'zlar: o'lchov, statistika, o'lchov shkalalari, ehtimollar nazariyasi, permanentlik, nominal shkala, tartib shkalasi, intervallar shkalasi, teng munosabatlar shkalasi

Matematik statistika ehtimollar nazariyasi sohasining alohida tarmog'i bo'lib, unda tasodifiy eksperimentlarga asoslangan, induktiv xulq-atvor qonuniyatlarining operativ xarakteristikalarini bilan bog'liq masalalar o'rganiladi.

Berilgan qiymatlar yoki bir xil kattalikdagi o'lchamlar turkumi taqsimot qatori deb ataladi. Deylik, biron bir imtixonidan olingan baholar shunday taqsimot qatorini tashkil qilishi mumkin.

Statistika predmetini belgilaydigan ikki asosiy yondashuv mavjud. Birinchisi, yalpi kuzatuvlar metodi deb nomlansa (tavsifiy statistika), ikkinchisi – tanlanma metod deb nomlanadi (tanlanma statistika). YAlpi kuzatuvlar metodi bizni qiziqtiradigan to'plam hajmini aniqlashdan va keyingi ushbu berilgan to'plamning barcha elementlari o'lchovidan iborat. O'lchamlar natijalari, yoki baholar, ko'rsatkichlar (qiymatlar) qatori deyiladi. Ushbu qatorlar o'rganilayotgan hodisani aks ettirishadi, biroq tavsifiy statistika mazkur qatorlardan boshlang'ich to'plamni lo'nda va mazmunli tavsif etuvchi ko'rsatkichlarni chiqarib olish metodlari bilan ishlaydi.

Tanlanma metod nazariyasi yoki statistik xulosa chiqarish metodi, olingan natijalarni qay darajada umumlashtirish imkonini mavjudligini va ular asosida biz qanday xulosalar chiqarishimiz mumkinligini ko'rsatadigan muolajalar (amallar) tavsifini berishdan iborat. YAlpi kuzatuvlar metodining tanlanma metoddan farqi quyidagilardan iborat: birinchi metod to'plamni tashkil etgan barcha birliklarni hisobga olsa, ikkinchi metod, asosiy to'plamdan olingan ma'lum bir tanlanma tahlili asosida butun to'plam xossalari xususida xulosalar chiqarish imkonini beradi.

Tadqiqot o'tkazilishi va xulosalar chiqarish rejalashtirilayotgan ko'p sonli kishilar majmui **sinaluvchilar bosh majmui** (yalpi jamlanma) deyiladi. **YAlpi jamlanma (population)** – tadqiqotchini qiziqtiruvchi o'rganilayotgan ob'yektlarning barchasi.

Biror bir reallikni aks ettiradigan har qanday sonlar qatori ko'plik deyiladi. Ko'plikning ikki xil turi mavjud: 1) bosh ko'plik – o'rganilishi dastlab rejalashtirilgan, shartli ravishda mavjud bo'lgan bir katta guruh (populyatsiya); 2) ajratib olingan ko'plik – bevosita o'rganiladigan real guruh (tanlama).

B o s h k o' p l i k bu o'rganilayotgan barcha elementlarning murakkab jamlanmasi hisoblanadi. **Bosh ko'plik** – bu tadqiqot gipotezasi shakllanishiga asos bo'luvchi ko'pgina barcha ob'yektlar¹

Tanlanma (sample) – yalpi jamlanma xossalari xususida xulosa chiqarish maqsadida o'rganilayotgan va maxsus usulda saralanib tashkil qilinayotgan yalpi jamlanmaning uncha katta bo'lmagan qismi. YA'ni **tanlanma** – bu sinaluvchilar bosh majmining bir qismi yoki bo'lagi hisoblanadi.

Tadqiqot populyatsiyada emas, tanlab olingan kishilar guruhida o'tkaziladi. Tekshiruv standartlashtirish tanlanmasida o'tkazilib, uning natijalari asosida xulosalar bosh majmuiga nisbatan ham chiqariladi. Baholash ishonarli bo'lishi uchun tanlanma **reprezentativ** bo'lishi, ya'ni uning xususiyatlari bosh majmua xususiyatlariga o'xshash yoki yaqin bo'lishi kerak.

Ya'ni, har qanday xossa yoki xususiyatlar kombinatsiyasi yalpi jamlanmada qanday darajada qayd etilsa shu darajada kuzatiladi.

**Репрезентатив танланма ялпи
жамланмани сифатли акс
этиради**

Masalan, A.Anastazi, Veksler shkalasi standartlashtirilayotganda reprezentativ tanlanmani shakllantirishni misol keltiradi. Tanlanma 1700 kishidan iborat bo'lib, unda ayollar va erkaklar soni teng. 16 yoshdan

64 yoshgacha bo'lgan sinaluvchilar 7ta yosh darajasiga ko'ra taqsimlangan (bunda geografik hududlarga, qishloq va shaharga mansubligiga ko'ra, oq va qora tanliligiga ko'ra, ma'lumotlilik darajasi va kasbiga ko'ra AQSH oxirgi aholini qayd etish ma'lumotlariga ko'ra proporsional taqsimlanish hisobga olingan. Har bir yosh darajasi bo'yicha tanlanmaga aqli zaiflar muassasalaridan bir ayol va bir erkak qo'shilgan.

Reprezentativlikni ta'minlash yo'llaridan biri – populyatsiyani chegaralash hisoblanadi. Masalan, 15 yoshlilar emas, 15 yoshli maktab o'quvchilari.

Populyatsiyani chegaralash quyidagi belgilar asosida amalga oshirilishi mumkin:

- yoshga
- jinsga
- ijtimoiy kelib chiqishiga
- kasbiga
- ijtimoiy-iqtisodiy mavqeiga -salomatligiga ko'ra.

Diagnostic metodikalarni tuzuvchi qaysi populyatsiya uchun metodika mo'ljallanganligini, ya'ni normativ ko'rsatkichlar ishlab chiqilganligini e'lon qilishi kerak.

Standartlashtirish tanlanmasiga sinaluvchilarni ajratib olish quyidagicha amalga oshiriladi:

- populyatsiyaga tavsif beriladi (yoshi, ma'lumotlilik, kasbi va h.).
- populyatsiya bir necha qismlarga ajratiladi.
- sinaluvchilar tasodifiy tarzda tanlab olinadi (masalan, alfavit bo'yicha, jadval bo'yicha).

¹ Наследов А. Д. Математические методы психологического исследования. Анализ и интерпретация данных. Учеб. пос. — СПб.: Речь, 2004. — 392 с.(мазмунидан фойдаланилди)

Demak, tanlanma – bosh majmuadan ajratib olingan tekshiruv o'tkaziladigan sinaluvchilar. Tanlanma hajmi ishonchli ma'lumotlar olish uchun 200 nafardan kam bo'lmasligi kerak.

Miqdoriy kattaliklardan turli yo'sinda foydalanish imkoniyati mavjud. Ularning ayrimlari ko'plab ma'lumot berishi mumkin bo'lsa (Mustaqillik maydonigacha 28 kilometr), ayrimlari kam ma'lumotlidir (birinchi yarim himoyachi 28-nchi raqam ostida o'ynayapti). Ba'zi bir ta'kidlar va statistik operatsiyalar faqatgina ayrim miqdoriy kattaliklar uchun yaroqlidir (bu yerdan 14 kilometr uzoqlikda joylashgan TDPU Mustaqillik maydonidan ikki karra yaqin). Ushbu ta'kid boshqa miqdoriy kattaliklar uchun be'manilik bo'lib tuyuladi (ikkinchi yarim himoyachi 14 raqami ostida o'ynayapti, demak u birinchi yarim himoyachining teng yarmini tashkil qiladi). SHu sababli sonlar bilan biron bir statistik amallarni bajarishdan oldin bizlar biz foydalanayotgan miqdoriy kattaliklar uchun ular mazmunga ega bo'lish yoki ega bo'lmasligini aniqlab olishimiz kerak bo'ladi.

S.Stivens o'lchov shkalalarining 4 turini farqlaydi²³:

- ✓ Nominal shkala
- ✓ Tartib shkalasi
- ✓ Intervallar shkalasi
- ✓ Teng munosabatlar shkalasi

Nominal shkala – nomlar bo'yicha tasniflash imkonini beradigan shkala: nomen (lot.) – nom, ism. Nomning o'zi miqdoriy o'lchanmaydi, u faqatgina bir ob'yektni boshqa ob'yektdan, yoki bir sub'yektni boshqa sub'yektdan farqlash imkonini beradi xolos. Boshqacha qilib aytsak, u yoki bu narsani ifodalash uchun foydalaniladigan sonlar, raqamlar nominal shkala orqali o'z ifodasini topgan bo'ladi. Nominal shkala orqali berilgan ma'lumotlar miqdoriy xossalarga ega emas. Nominal shkalalar ma'lumotlari bilan qilishimiz mumkin bo'lgan yagona statistik amal – ular necha marotaba paydo bo'lishini sanab chiqish (28 raqam ostida necha kishi maydonda to'p surayapti). Nominal shkala bu ob'yektlar yoki sub'yektlarni tasniflash yacheykalari bo'yicha taqsimlashdan iborat tasniflash usulidir⁴.

Nominal shkalaning eng soda ko'rinishi bu ikki yacheykadan iborat dixotomik shkaladir, masalan, «opa-ukalari bor – oiladagi yagona farzand»; «ajnabiy - vatandosh» va h.k.

Dixotomik shkala bo'yicha o'lchanayotgan xossa muqobil yoki al'ternativ deb ataladi. U faqatgina ikki ko'rsatkichga ega bo'lishi mumkin.

Tartib shkalasi – bu «katta-kichik» tamoyili bo'yicha tasniflovchi shkaladir. Agar nominal shkalada tasniflash yacheykalarini qay tartibda joylashtirishning ahamiyati bo'lmagan bo'lsa, tartib shkalasida ular muayyan bir qonuniy izchillikdan iborat bo'ladi («eng kichik qiymat» yacheykasidan «eng katta qiymat» yacheykasiga qarab yoki buning teskarisi). Ushbu

² Сидоренко Е.В. Методы математической обработки в психологии. — СПб.: «Речь», 2000.

³ с, С-12

⁴ Ермолаев О.Ю. Математическая статистика для психологов. М., 2003. 236 с. С-14 (мазмунидан фойдаланилди)

vaziyatda yacheykalarni sinf deyish o'rinli hisoblanadi. Chunki aynan sinflarga nisbatan «past», «o'rta», «yuqori» yoki 1-nchi, 2-nchi, 3-nchi sinf kabi so'zlarni ishlatish mumkin. Boshqacha qilib aytsak, tartibga solinishi mumkin bo'lgan qiymatlar tartib shkalasida o'rin olgan bo'ladi. Kurash musobaqasida g'olib bo'lganga 1-raqami beriladi, ikkinchi o'rin olganga 2 raqami va uchinchi o'ringa erishganga 3 raqami beriladi. Ushbu raqamlarga qarab bizlar 1-nchi o'rin sohibi 2-nchi o'rin sohibidan kuchliroq ekanini bilamiz, biroq qanchalar kuchli ekani xususida biron bir tayinli fikr bildirga olmaymiz. 1-nchi va 2-nchi o'rin sohiblarini 10 ball ajratib turgan bir paytda, 2-nchi va 3-nchi o'rin sohiblarini atiga 0,5 ball farqlashi mumkin.

Tartib shkalasida yo'q deganda uch sinf bo'lishi kerak, masalan, «ijobiy reaksiya – neytral reaksiya – salbiy reaksiya» singari.

Intervallar shkalasi – bu «ma'lum birlikka ko'p – ma'lum birlikka kam» tamoyiliga tayanib tasniflanadigan shkaladir. Xossaning alohida ehtimolli qiymati boshqa qiymatdan ma'lum masofada joylashgan bo'ladi. Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, agar qiymatlar o'rtasidagi intervallar mazmun kasb etsa, unda ushbu qiymatlar intervallar shkalasida joylashgan bo'ladi.

Teng munosabatlar shkalasi – bu ob'yektlarni yoki sub'yektlarni o'lchanayotgan xossaning namoyon bo'lish darajasiga qarab proporsional ravishda tasniflovchi shkaladir. U mutloq nolga teng hisob tayanch nuqtasini mavjudligini taqozo qiladi. Aynan shuning uchun ham Ushbu shkala psixologiyada kamdan kam hollarda qo'llaniladi (chunki mutloq ahmoqlik yoki mutloq halollik kabi tushunchaning o'zi bo'lmaydi).

Mustaqil ish topshiriqlari: *Matematik statistikaning asosiy tushunchalari mavzusiga doir adabiyotlarni o'qish.*

Mavzu bo'yicha savollar

1. Psixologiyada matematik statistikaga ta'rif bering.
2. Psixologiyada o'lchov shkalalari qanday?
3. Yalpi jamlanma nima?
4. Tanlanma reprezentativligi nima?
5. Nominal shkala nimalarni aks ettiradi?

TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Kricheven A.N, SHikin ye.V, D'yachkov A.G. Matematika dlya psixologov. M. 2003 g.
2. Sidorenko ye.N Metodi matematicheskoy obrabotki v psixologii. Rech', SPb, 2000 g.
3. Nishonova Z.T, Qarshiyeva D.S. "Eksperimental psixologiya" T:2007.
4. Nemov R.S. Psixologiya. 3 kniga. M-2003 Vlados.
5. Nasledov A.D. SPSS: komp'yuterniy analiz dannix v psixologii i sotsial'nix naukax.2-izd.- SPb., 2007.- 416s.
6. Nasledov A.D. Matematicheskiye metodi psixologicheskogo issledovaniya. Analiz i interpretatsiya dannix. SPb., Rech', 2004.

7. Borovikov V. Statistika. Iskustvo analiza dannix na komp'yutere. SPb., 2003.
8. Suxodolskiy G.V. Matematicheskiye metodi psixologii. SPb., 2003.
9. Ermolayev O.YU. Matematicheskaya statistika dlya psixologov. M., 2003.

2-maruza. Excel va SPSS komp'yuter dasturlarida ma'lumotlarni tashkil qilish.

Reja:

1. Windows uchun yexsel dasturining elektron jadvali bo'yicha asosiy tuushuncha.
2. Ma'lumotlarni kiritish va tahrir qilish.
3. Ma'lumotlarni shakllantirish.
4. Excel oynalari. Funksional klavishlar.
5. O'lchov shkalalari va ma'lumot turlari. Tahlil uchun ma'lumot manbalari.
6. Ma'lumotlarni tashkil etish xususiyatlari.
7. Ma'lumotlarni kodlashtirish usullari.
8. Ma'lumotlarni kiritish usullari.

Tayanch so'zlar: *excel dasturi, moda, mediana, o'rtacha, dispersiya, standart og'ish, variativlik koeffitsenti, normal taqsimlanish, moda, mediana, o'rtacha, dispersiya, standart og'ish, variativlik koeffitsenti*

Ma'lumotlarni jadval ko'rinishida tasvirlash, ularni taxlil qilish, xisob-kitob ishlarini olib borish uchun maxsus amaliy dasturlar Sirer Sals va yexsel yaratilgan bo'lib, ular elektron jadvallar yoxud jadval protsessori deb yuritiladi. Elektron jadvallar ayni vaktida ko'llanadigan soxalar ko'p, xususan bank va soliq tizimlarida, iktisodiy masalalarni yechishda foydalanilib kelinmokda. Ana shunday dasturlardan biri Microsoft Excel dasturidir.

MS Excel Microsoft Office paketi tarkibidagi dastur bo'lib, u Windows operatsion kobik dasturi boshkaruvida ishlovchi hamda ma'lumotli elektron jadvallarni tayyorlash va kayta ishlashga mo'ljallangan.

MS yexsel da tayyorlangan har bir hujjat (ma'lumotli jadval) ixtiyoriy ism va XLS kengaytmadan iborat fayl bo'ladi. yexsel atamasida bunday fayl «Ish kitobi» (Workbook) deb yuritiladi. Har bir XLS faylida 1 tadan 255 tagacha elektron joylashishi mumkin, ularning har biri yexselning ish varag'i deb yuritiladi.

Microsoft Excelning asosiy ish maydoni - bu «Ish kitobi» bo'lib, u bir yoki bir nechta ish varaklaridan iborat. Ish varag'ida buxgalter (xisobchi) kitobi kabi, sonlar, matnlar, arifmetik ifodalar, xisoblar, qator va ustunlarda joylashgan bo'ladi. yexselning buxgalter kitobidan asosiy farqi barcha xisob ishlarini uning o'zi bajaradi, lekin ma'lumotlarni kiritish foydalanuvchi zimmasida koladi.

Excel elektron jadvali 16384 qator (row) va 256 ustun (column) dan iborat. Qatorlar 1dan 16384gacha bo'lgan butun sonlar bilan tartiblangan, ustunlar esa lotin alifbosining bosh harflari (A, V, ... , 2, AA, AV, ... , IV) bilan belgilangan. Qator va ustun kesishmasida elektron jadvalning asosiy tarkibiy elementi -yacheyka (cell) joylashgan. Har bir yacheykaga son, matn yoki formula tarzidagi ma'lumotlar kiritiladi. Ustun kengligini va qator balandligini o'zgartirish ham mumkin.

Inson o'z ish faoliyati davomida ko'pincha biror kerakli ma'lumot olish uchun bir xil, zerikarli, ba'zida esa murakkab bo'lgan ishlarini bajarishga majbur bo'ladi. Microsoft Excel, dasturi mana shu ishlarni osonlashtirish va kizikarli qilish maksadida ishlab chiqilgandir.

Microsoft Excel elektron jadvali hisoblash vositasi sifatida karalib iktisodiy va moliyaviy masalalarni yechishda yordam beribgina kolmay, balki har kungi harid kilinadigan ozik-ovkatlar, uy ro'zgor buyumlari hamda, bankdagi xisob rakamlari xisob-kitobini olib borishda ham yordam beruvchi tayyor dasturdir.

Excel elektron jadvalining asosiy elementlari

Microsoft Exceldagi barcha ma'lumotlar jadval ko'rinishida namoyon bo'lib, bunda jadval yacheykalarining (xonalarining) ma'lum kismigi boshlang'ich va birlamchi ma'lumotlar kiritiladi, boshka boshka kismilari esa har xil arifmetik amallar va boshka boshlangiya ma'lumotlar ustida bajariladigan boshka amallar natijalaridan iborat bo'lgan axborotlardir.

Elsktron jadval yacheykalariga uch xil ma'lumotlarni kiritish mumkin

- Matnli - sonli ifodalar - formulalar.

Matnli ma'lumotlar sarlavxa, belgi, izoxlarni o'z ichiga oladi.

Sonli ifodalar bevosita jadval ichiga kiritiladigan sonlardir.

Formulalar - kiritilgan sonli qiymatlar bo'yicha yangi qiymatlarii hisoblaydigan ifodalardir.

Formulalar har doim «=» belgisini qo'yish bilan boshlanadi. Formula yacheykaga kiritilgandan keyin shu formula asosida xisoblanadigan natijalar yana shu yacheykada hosil bo'ladi. Agar shu formulada foydalanilgan sonlardan yoki belgilardan biri o'zgartirilsa, Excel avtomatik ravishda yangi ma'lumotlar bo'yicha xisob ishlarini bajaradi va yangi natijalar hosil kilib beradi.

Excelning asosiy ishlov berish ob'yekti hujjatlar (dokumentlar) xisoblanadi. Excel hujjatlari (dokumentlari) ixtiyoriy nomlanadigan va XLS kengaytmaciga ega bo'lgan fayllardir. Excel da bunday fayllar «Ishchi kitob» deb ataladi. Har bir Ishchi kitob ixtiyoriy sondagi elektron jadvallarni o'z ichiga olishi mumkin. Ularning har biri «ishchi varag'i deb ataladi». Har bir ishchi- varak o'z nomiga ega bo'ladi. Ishchi kitobni hosil qilish uchun Microsoft Excel dasturini ishga tushirish zarur.

Exsel dasturini ishga tushirish va ishni tugatish

Excel 2000 dasturini yuklashdan oldin, Windows 2000 (Windows 95-

98) dasturini yuklash lozim. Bu esa sodda, ya'ni ko'pchilik komp'yuterlarda komp'yuter yuklanishi bilan amalga oshiriladi. YUklash jarayoni quyidagicha: komp'yuter yokiladi, zkranda mulokat darchasi paydo bo'lib, foydalanuvchi ismi va paroli so'ralsa, u kiritiladi va [Enter] tugmachasi bosiladi.


Odatda MS Excelga mos keluvchi piktogramma Microsoft office darchasida joylashgan bo'ladi. Bunday vaziyatda yexselni ishga tushirish uchun Excelga mos piktogramma ustida «sichqoncha» tushachasi bosiladi.

Agar Excel dasturiga mos keluvchi piktogramma darchada bo'lmasa, u xolda yexselni yuklash uchun quyidagi tartibda ish tutiladi:

- «sichqoncha» ko'rsatkichi ekranning qo'yi kismida joylashgan «Pusk» (start) tugmachasiga keltirilib chap tugmachasi bosiladi, so'ngra «Zapusk» (start) menyusi ochiladi;

- «sichqoncha» ko'rsatkichi «Programmi bandiga keltiradi va bosiladi;

- dasturlar ro'yxatidan Microsoft Excel tanlanadi va «sichqoncha» tugmachasi bosiladi, natijada Excel dasturining dastlab zarvarag'i, so'ngra umumiy ko'rinishdagi ish stoli ekranga chikadi (3-rasm).



1-rasm. MS Excel ish stoli

Excel ishga tushgandan so'ng, ekranda uning ish stoli - elektron jadval hosil bo'ladi. Elektron jadvalning yukori kismida sarlavxa satri menyu satri, uskunalar majmuasi joylashgan. Uskunalar yexsel buyruqlarining aksariyatini va ko'shimcha amallarni bajarish uchun mo'ljallangan.

<p>Excel 2000 «Fayl» buyruq to'plami Buyruqlari</p>	<ul style="list-style-type: none"> -yangi jadval yaratish .. -xotiradagi jadvalni yuklash... -faylni yopish -fayl(jadval)ni xotirada saklash -fayl (jadval)ni nom bilan xotirada saklash... -WEB caxifa kabi nom bilan xotirada saklash... -ish soxasini xotirada saklash... -WEB saxifani ko'zdan kechirish -saxifa parametrlarini o'rnatish... -chop kilinadigan soxani aniklash -jadvalni ko'zdan kechirish -fayl (jadval)ni chop qilish -fayl (jadval)ni manzilga yuborish -fayl xossalari -oxirgi fayllar ro'yxati
---	---

Jadvalni tahrirlash. «Pravka» bo'limi

Eslatma. Windows 3.1 da yexsel 5.0 versiyasini yuklash yutsoridagidan farqli o'larok, Microsoft office guruhida yexsel piktogrammasi ustida «sichroncha» tugmachasini ikki marta bosshi orsali yuklanadi.

Exselda ishni tugatish uchun sistema menyusidagi X belgi ustida «sichqoncha» tugmachasi bosiladi yoki «Fayl» buyruqlar to'plamiga kirib «Vixod» bandi ustida «sichqoncha»

tugmachasi bosiladi, [Alt]+[F4] tugmachalarini birgalikda bosib ham exselda ishni tugatish mumkin.

SPSS dasturining o'zi ijtimoiy fanlardagi turli ma'lumotlarni tahlil qilishga mo'ljallangan ko'plab dasturlar majmuasidan iboratdir. Bu dasturlar ma'lumotlarni kiritish, ularning tuzilishini oson o'zgartirish, ularni eng zamonaviy statistik metodlar yordamida tahlil qilish, qulay va ko'rgazmali ko'rinishda natijalar olish imkonini beradi. Dasturlar bir, yaxlit tizimga birlashtirilgan va foydalanish uchun qulay va juda oddiydir. SPSS dasturi qulay interfeysga ega va nisbatan oddiy bo'lganligi uchun har bir kishi SPSS dasturidan foydalanib ma'lum statistik amallarni bajarishi mumkin deb hisoblanadi. SHu bilan birga shuni ta'kidlash lozimki, matematik statistikadan hech bo'lmaganda boshlang'ich tushunchaga ega bo'lmagan kishi SPSS dasturidan foydalanib ham oddiy vazifalari mustaqil ravishda yechish va xulosa chiqarish imkoniyatiga ega bo'lmaydi.

Komp'yuterni bilishga bo'lgan talab esa oddiy. Ko'pchilik soha mutaxassislari SPSSda ishlash uchun komp'yuterni yoqish va o'chirishni, klaviatura va sichqoncha bilan ishlashni bilish yetarli deb hisoblaydilar. Dastur bilan ishlashga doir boshqa amallarni qiynalmay o'rganish mumkin. Komp'yuterda esa SPSS for Windows dasturining imkon qadar yangi versiyasi (mavjud versiyalarning oxirgilari SPSS for Windows 20 va SPSS for Windows 21) o'rnatilgan bo'lishi tavsiya qilinadi. SPSS dasturining yuqorida ko'rsatilgan versiyalari rus tilida batafsil ma'lumotlar tizimiga ega va oldingi variantlaridan farqli ravishda uning menyusi va ko'pchilik amallari rus tiliga tarjima qilingan. SPSS dasturining oldingi versiyalari bilan ishlaganlar uchun shuni ko'rsatish lozimki, yangi versiyadagi ba'zi nomlar, amallar tarjimasi oldingilardan farq qiladi. Ammo bunday farq dastur bilan ishlashda hech qanday qo'shimcha murakkablik keltirib chiqarmaydi.

SPSS modullari. SPSS dasturining tarkibi uchta asosiy moduldan iboratdir. SPSS uchun modul – ma'lum statistik amallar to'plamidan iboratdir. SPSSning asosini SPSS Base (asosiy modul) tashkil qiladi. U turli ma'lumotlardan foydalanish va ularni bosh-qarish imkonini beradi. Bu modul eng ko'p qo'llaniladigan statistik tahlil metodlaridan tashkil topgan. An'anaviy tarzda SPSS Base bilan birgalikda yana 2 ta modul, Advanced Models (prodvnutiye modeli) va Regression Models (regressionniye modeli) beriladi.

SPSS dasturi – hozirgi kunda statistik dasturlar orasida sifatli va yetakchi dasturlardan biridir. Bu dasturdan ma'lumotlarni kiritish va tahlil qilish, jadval, grafiklarni yaratishda ham foydalanish mumkin.

Ma'lumotlarni kiritish va tahrir qilish.


Aniq holatlarga ega bo'lgan ma'lumotlarni kiritish

Keyingi ish uchun albatta ma'lumotlar kiritilishi yoki *.sav fayllari mavjud ma'lumotlar bilan ishlash mumkin. Fayllarni saqlash albatta ismi va programmaning nomi orqali bajarilishi zarur. (rasm 5).

Har bir o'zgaruvchini kiritish uchun quyidagilarni aniqlashtirib olish kerak:

- O'zgaruvchining nomi;
- O'zgaruvchining turi (**Type**);
- Tashlab qoldirilgan ko'rsatkichlar (**Missing Values**);

- O'zgaruvchilar nishoni (**Labels**) – qulaylik uchun bu ustunni o'zbek tilida yozish mumkin;
- O'zgaruvchilarni jadvaldagi turgan o'rni (**Column Format**).



Rasm 5. Ko'rsatkichlarni kiritish oynasi

Ko'rsatkichlar holatini aniqlashtirib olish tavsiya qilinadi – **Value Labels**, masalan: “0” – javob yo'q, “1” – ha, “2” – yo'q va boshqalar.

O'zgaruvchilarning ismi uchun quyidagi qonun qoidalarga amal qilinishi kerak:

- ism xarflardan boshlanishi kerak boshqalar turlicha bo'lishi mumkin;
- ismlar nuqta yoki belgilar orqali yakunlanmasligi zarur;
- ismlar uzunligi 8 ta belgidan oshmasligi kerak;
- faylning ismida probel yoki maxsus belgilar ishlatilmasligi kerak !, ?, *) va boshqalar;
- o'zgaruvchilarning ismlari registrga sezuvchan emas.


O'zgaruvchanlik tipi sonli, nuqtali, vergulli, ilmiy ko'rinish, sana, pul birligi va chiziqli bo'lishi mumkin Ixtiyoriy formatdagi valyuta keyingi bo'limda belgilanadi **Currency** oyna **Options**, dostupnom iz menyu punktida **Edit**.

Metka har bir o'zgaruvchi uchun yozilishi mumkin. Bu juda qulay uning uzunligi 8 ta belgidan oshmasligi, metka esa 256 ta belgigacha bo'lishi mumkin, bu ma'lumotlarni kiritishda qo'l keladi.

Foydalanuvchi ko'rsatkichlarni ma'lum bir qismini aniqlash imoniyatiga ega. Bu ma'lumotlarni yo'qligi foydali hisoblanadi. Masalan, tadqiqotchi sinaluvchi tomonidan rad etilgan javoblarni ajratish holatlarini mavjud. Ko'rsatkichlar mazmuni boshqalardan ajratish holati mavjudligini kuzatishimiz mumkin

Ko'rsatkichlarni tahrir qilish

Dialog oynasi **Templates** ma'lum o'zgaruvchilarni aniqlash imkoniyatini yaratadi va ma'lumotlarni kiritishda ishlatiladi (rasm 6).



Rasm 6. O'zgaruvchilar uchun dialog oynasini aniqlash

Ko'rsatkichlar turli tartibda kiritilishi mumkin-kuzatishla orqali yoki o'zgaruvchilar holati bilan, ma'lum bir sohalar uchun, yoki alohida yacheykalar uchun. Faol yacheykalar to'q belgilar bilan belgilanadi. Ko'rsatkichlar yozilmaydi, sinaluvchi Enter tugmasini bosmaguncha yoki boshqa yaseykani tanlamaguncha.ma'lumotlarni kiritish uchun albatta uning turini aniqlashtirib olish zarur.


Ko'rsatkichlarni kiritib bo'lgach ularni albatta qattiq diskda saqlanishi zarur, ko'rsatkichlarni original holatlarida saqlanishi mumkin *.sav : **File – Save As...**

Kiritilgan ko'rsatkichlar ko'rsatkichlar redaktori orqali tahrir qilinishi mumkin, bu esa quyidagilarni imkoniyatini beradi:

- o Ko'rsatkichlar mazmunini o'zgartirish. o Ko'rsatkichlar mazmunini qirqish, nusxa olish, joylashtirish o O'zgaruvchilarni qo'shish yoki o'chirish
- o Ma'lum bir o'zgaruvchilarning tartibini o'zgartirish yoki aniqlashtirish o Ko'rsatkichlar mazmuni ma'lum bir kuzatish holatida bog'liq bo'ladi.

			region	happy	life	sibs	childs	age	educ	paeduc	maeduc	speduc	prestg80
			North East	Very H	Exciti	1	2	61	12	NAP	12	NAP	2
			North East	Pretty	Exciti	2	1	32	20	20	18	20	7
3	Male	White	North East	Very H	NAP	2	1	35	20	16	14	17	5
4	Fem	White	North East	NA	Routin	2	0	26	20	20	20	NAP	4
5	Fem	Black	North East	Pretty	Exciti	4	0	25	12	DK	DK	NAP	4
6	Male	Black	North East	Pretty	NAP	7	5	59	10	8	6	NAP	DK,NA,NA
7	Male	Black	North East	Very H	Exciti	7	3	46	10	8	DK	NAP	DK,NA,NA
8	Fem	Black	North East	Pretty	NAP	7	4	NA	16	5	6	NAP	6
9	Fem	Black	North East	Pretty	Routin	7	3	57	10	6	5	NAP	DK,NA,NA
10	Fem	White	North East	Pretty	Exciti	1	2	64	14	8	12	20	3
11	Male	White	North East	Pretty	Exciti	6	0	72	9	12	DK	NAP	3
12	Fem	White	North East	Very H	NAP	2	5	67	12	8	8	13	2
13	Male	White	North East	Pretty	NAP	1	0	33	15	11	12	14	6
14	Male	Other	North East	Pretty	Routin	2	1	23	14	12	12	NAP	4
15	Fem	White	North East	Pretty	Routin	7	1	33	12	12	12	NAP	5
16	Fem	White	North East	Very H	Routin	6	2	59	12	8	DK	12	DK,NA,NA

Rasm 7. Ko'rsatkichlar tahriri (punkt menyu Edit)



	number	var1	var2	age	terr	val
1	1	1	2	45	Сургут	
2	2	1	1	22	Нефтеюганск	
3	3	3	1	19	Нефтеюганск	
4	4	1	2	42	Нефтеюганск	
5	5	4	1	34	Ненецк	
6	6	3	2	72	Ненецк	
7	7	2	1	38	Сургут	
8	8	2	2	56	Сургут	
9	9	2	1	61	Сургут	
10	10	1	2	77	Сургут	
11						
12						
13						
14						
15						

SPSS programmasida turli xil formatdagi fayllarni tahlil qilish mumkin. Ko'pgina holatlarda elektron jadvallar Lotus 1-2-3 yoki Excel, dBASE, SQL yoki tekst fayllari bo'lishi mumkin.

Mavzu bo'yicha savollar

1. Exsel dasturi nima va nima uchun ishlab chiqilgan?
2. Exsel da ma'lumotlar qanday ko'rinishda yoziladi?
3. Elektron jadvallar yacheykalari necha xil bo'ladi?
4. Formulalar nima va ular kayerda yoziladi?
5. Exselning asosiy ish ob'yekti nima.
6. Ishchi kitob nima va u nimalarni o'z ichiga oladi?
7. Exsel dasturini ishga tushirish usullarini aytib bering.
8. Ilovalar darchasining asosiy elementlari nimalardan iborat?
9. Uskunalar paneli necha turga bo'linadi? 10. Elektron jadvalning asosiy elementlarini aytib bering.
10. Dasturda qanday o'lchov shkalalari mavjud?
11. Ma'lumotlarni tashkil etish xususiyatlari qanday?
12. 3.Ma'lumotlar qanday tartibda kiritiladi?
13. Elektron jadvallardan ma'lumotlarni kiritish qanday amalga oshiriladi?
14. O'zgaruvchilarning xususiyatlarini ko'chirish va joylashtirish qanday amlga oshiriladi?

Mustaqil ish topshiriqlari: Psixologiyada matematik statistik metodlarni qo'llash mavzusiga doir adabiyotlarni o'qish.

TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Kricheven A.N, SHikin ye.V, D'yachkov A.G. Matematika dlya psixologov. M. 2003 g.

2. Sidorenko ye.N Metodi matematicheskoy obrabotki v psixologii. Rech', SPb, 2000 g.
3. Nishonova Z.T, Qarshiyeva D.S. "Eksperimental psixologiya" T:2007.
4. Nemov R.S. Psixologiya. 3 kniga. M-2003 Vldos.
5. Nasledov A.D. SPSS: komp'yuterniy analiz dannix v psixologii i sotsial'nix naukax.2-izd.- SPb., 2007.- 416s.
6. Nasledov A.D. Matematicheskiye metodi psixologicheskogo issledovaniya. Analiz i interpretatsiya dannix. SPb., Rech', 2004.
7. Borovikov V. Statistika. Iskustvo analiza dannix na komp'yutere. SPb., 2003.
8. Suxodolskiy G.V. Matematicheskiye metodi psixologii. SPb., 2003.
9. Ermolayev O.YU. Matematicheskaya statistika dlya psixologov. M., 2003. 10. Byuyul A., Syofel P. SPSS: iskustvo obrabotki informatsii. Analiz statistiche-skix dannix i vosstanovleniye skritix zakonomernostey. Moskva, Sankt-Peter-burg, Kiyev, 2005. – 603 s.


3- mavzusi.. Ma'lumotlarni tavsiflash va ularning eng sodda tahlil metodlari

Reja:


1. Variatsion qator tushunchasi.
2. Variatsion qatorni tartiblash.
3. Limit, ranjirovka, median, moda va kvartillar.
4. Variatsion qatorni tasniflash.
5. Natijalarni grafik usulda taqdim etish.

Tayanch so'zlar: variatsion qator, limit, ranjirovka, median, moda, kvartil, gistogramma.

Taqsimot qatorining elementlari o'zaro katta tafovutlarga ega bo'lishi yoki bir biriga juda yaqin bo'lishlari ham mumkin. Mazkur vaziyatni yaqqolroq ko'rish uchun 8, 9, 10, 10, 13 elementlaridan iborat taqsimot qatorini ko'zdan kechirsak. Ushbu taqsimot qatorini A-taqsimot qatori deb nomlaymiz.



Endi 1, 5, 10, 16, 18 elementlardan iborat B-taqsimot qatorini ko'zdan kechirsak.




A-taqsimot qatorining toshlari B-taqsimot qatori toshlariga nisbatan jipsroq joylashganining guvohi bo'lishimiz mumkin. Ushbu ikkala taqsimot qatorlarining o'rtacha qiymatlari bir hil ekanini alohida e'tirof etmog'imiz lozim (10 birlik). Mazkur ikki taqsimot qatorining o'zaro qiyosini berar ekan statist B-taqsimot qatori variatsiyasi A- taqsimot qatori variatsiyasiga nisbatan katta ekanini ta'kidlashi mumkin.


Variatsiya tadqiqotchi o'zlashtirishi lozim bo'lgan tushunchadir. Ushbu xossa bir butun, yaxlit olingan taqsimot qatori elementlarining o'zaro munosabatlarini aks ettiradi. Demak, muayyan taqsimot qatorining biron bir elementi o'zgarsa bu xol ushbu qatorning variatsiyasiga ta'sir etmay qolmas ekan. B-taqsimot qatorining 18 sonli elementini 20 soniga o'zgartirdik, deylik. Biz rasmdagi 18 belgisi ustidagi toshni o'ng tomonga ikki birlikka siljitishimiz lozim bo'ladi. Ushbu siljish taqsimot qatori elementlari tarqoqligini oshiradi, pirovardida, ularning variatsiyasi ham oshadi. Mabodo, o'sha toshni ikki birlikka chapga tomon sursak unda qatorning variatsiyasi kamayadi.

Endi taqsimot qatorining 10 birlikdagi elementini 11 birlikka siljitdik deb faraz qilib ko'rsak. Ushbu toshning siljishi taqsimot qatori variatsiyasini oshiradimi yo kamaytiradimi? Bu savolga javob topish biroz murakkabroqdir.

Ko'pincha bizlar qaysidir qator variatsiyasi katta yo kichikligini ko'z bilan o'lchab aniqlay olmaymiz. Quyidagi taqsimot qatorlarini o'zaro taqqoslasak. *statistik ko'rsatkich*

Variatsiya – xossalarning o'zgaruvchanlik darajasini belgilovchi taqsimot qatori





Qaysi taqsimot qatorining variatsiyasi katta ekanini aniqlashimiz mumkinmi? Ushbu savolga javobni variatsiya o'lchami aniqlab olinmaguncha topib bo'lmaydi. Demak, bizning keyingi qadamimiz xos variatsiya o'lchamini aniqlab olishdan iboratdir.

Tadqiq etilayotgan taqsimot qatori elementlari asosida aniqlanadigan son variatsiyaning ushbu o'lchami vazifasini o'taydi. Mazkur sonni topsak, u muayyan taqsimot qatori elementlari tarqoqligi darajasini ko'rsatadi. Ushbu o'lcham ma'lum bir talablarga javob berishi joiz. SHuning uchun ham uni topishdan avval, biz mazkur talablar nimadan iborat ekanini aniqlab olishimiz darkor. Biz buni amalga oshirib bo'lganimizdan keyin u bizlarga ushbu qiymatni qanday topishimiz mumkinligini ko'rsatadi.

Agar u elementlari bir-biridan unchalar ham katta tafovutga ega bo'lmagan sonlardan iborat taqsimot qatori asosida hisoblab chiqilayotgan bo'lsa, ushbu qiymat ko'rsatkichi kichkina bo'lishi kerakligi birinchi xossa mohiyatidir.

Ikkinchi xossa - ushbu qiymat taqsimot qatori elementlari soniga bog'liq bo'lmasligidan iborat. YAnada aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, taqsimot qatori elementlarining soni ko'payishi tufayli oshadigan o'lcham ko'rsatkichi bizga kerak emas. Bizning ko'rsatkichimiz sonlarning miqdoriga bog'liq bo'lmagan holda ularning o'rtalaridagi tafovut va monandlikni aks ettirishi lozim. Taqsimot qatori minglab elementlardan tashkil topgan bo'lsa-da, agar ular bir-biriga yaqin bo'lsa, bizning ko'rsatkichimiz nisbatan kichik qiymatga ega bo'lishi shart.

Uchinchi xossa - bizning ko'rsatkichimiz o'rtacha qiymatga tobe bo'lmasligi kerakligidan iborat. Bizga faqatgina elementlar o'rtasidagi tarqoqlik darajasini bilish kifoya. Bundan oldingi bo'limda B taqsimot qatori variatsiyasi katta bo'lsada A va B taqsimot qatorlarining o'rtacha qiymatlari bir hil ekanini aniqlagan edik. Biz ma'lum bir taqsimot qatorining o'rtacha qiymati millionga teng ekanini bilganimiz bilan ushbu rasmda o'z ifodasini topgan taqsimot qatorining toshlari joylashuvi xususida biron bir aniq fikrni aytmagan bo'lardik. O'rtacha ko'rsatkich elementlar variatsiyasi bilan bog'liq emas ekan uning qiymati bizning o'lchamimizga ta'sir etmasligi kerak.

Variatsiya o'lchamlarining asosiy xossalari:

A) ushbu qiymat ko'rsatkichi juda katta bo'lmasligi kerak;

B) ushbu qiymat taqsimot qatori element-

lari soniga bog'liq emas;

V) *ushbu qiymat o'rtachaga tobe bo'lmaydi.* SHu bilan biz agar taqsimot qatori elementlari o'rtacha ko'rsatkichga yaqin joylashgan bo'lsa, demak ushbu taqsimot qatori variatsiyasi kichik, agar tarqoqlik katta bo'lsa variatsiya ham katta bo'ladi degan muhim xulosaga keldik. Demak, bizlar qidirayotgan variatsiya o'lchami taqsimot qatori elementlarining o'rtachagacha bo'lgan oraliq masofa qanchaligini aks ettirishi kerakligini aniqladik. SHu joyda, biz o'rtacha qiymat qancha ekanini inobatga olmayotganimizni, balki taqsimot qatorining har bir elementi undan qanchalar olis yoki yaqin ekanini bildiruvchi masofalar yig'indisigina ko'zdan kechirishimiz kerakligini alohida ta'kidlab o'tishimiz lozim.

Mavzu bo'yicha savollar

1. Variatsion qator tushunchasi nimani anglatadi?
2. Variatsion qatorni tartiblashda nimalarga ahamiyat qaratiladi?
3. Moda nima?
4. Natijalarni ranjirlash qanday amalga oshiriladi?
5. Mediana deb qaysi elementga aytiladi?

TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Kricheven A.N, SHikin ye.V, D'yachkov A.G. Matematika dlya psixologov. M. 2003 g.
2. Sidorenko ye.N Metodi matematicheskoy obrabotki v psixologii. Rech', SPb, 2000 g.
3. Nishonova Z.T, Qarshiyeva D.S. "Eksperimental psixologiya" T:2007.
4. Nasledov A.D. Matematicheskiye metodi psixologicheskogo issledovaniya. Analiz i interpretatsiya dannix. SPb., Rech', 2004.
5. Borovikov V. Statistika. Iskustvo analiza dannix na komp'yutere. SPb., 2003.
6. Suxodolskiy G.V. Matematicheskiye metodi psixologii. SPb., 2003.
7. Ermolayev O.YU. Matematicheskaya statistika dlya psixologov. M., 2003.

4- mavzu. Excel va SPSS komp'yuter dasturlarida markazga intilish va markazdan qochish tendensiyalarini aniqlash

Reja:

1. Normal taqsimlanish qonuni to'g'risida umumiy tushuncha.
2. Moda, mediana va o'rtacha qiymat orasidagi o'zaro bog'liqlik.
3. Dispersiya va standart og'ish.
4. Variativlik koeffitsiyenti va standart xatoni hisoblash.

Tayanch so'zlar: normal taqsimlanish, moda, mediana, o'rtacha, dispersiya, standart og'ish, variativlik koeffitsenti

***** Normal taqsimlanishning asosiy ko'rsatkichlari:**

Tanlamadagi ma'lumotlarning normal taqsimlanganligidan guvohlik beruvchi ko'rsatkichlar quyidagilardir:

- tanlamaning simmetrik taqsimlanganligi (gistogramma yoki boksploot usulida ko'rgazmali tarzda ifodalash mumkin).

- Medianna va o'rtacha qiymat bir biriga teng yoki juda yaqin.

- Assimetriya va ekscess ko'rsatkichlari nolga yaqin qiymatga ega.

*** Dispersiya - deb taqsimot qatori elementlari bilan ularning o'rtacha ko'rsatkichi ayirmalari kvadratining o'rtachasiga aytiladi Masalan:

1, 4, 10, 11, 14 – **S**- taqsimot qatori

2, 5, 8, 12, 13 - **D**- taqsimot qatori

Berilgan **S**- taqsimot qatorining-mi yoki **D**- taqsimot qatorining variatsiyasi katta ekanini aniqlashimiz mumkin. Ushbu taqsimot qatorlari variatsiyalarining hisob-kitobi quyidagi jadvallarda berilgan:

S- taqsimot qatori dispersiyasini topish.

elementlar	o'rtacha	ayirma	Ayirma kvadrati
1	8	-7	49
4	8	-4	16
10	8	2	4
11	8	3	9
14	8	6	36
			114
		Dispersiya	$= 114 / 5 = 22,8$

D- taqsimot qatori dispersiyasini topish.

elementlar	o'rtacha	ayirma	Ayirma kvadrati
2	8	-6	36
5	8	-3	9
8	8	0	0
12	8	4	16
13	8	5	25
			86
		Dispersiya	$= 86 / 5 = 17,2$

S-taqsimot qatori dispersiyasi kattaroq ekani, demakki, uning elementlari variatsiyasi kuchliroq ekani ko'rinib turibdi.

Dispersiyani topishning bundan-da oqilona uslubi ham mavjud (ushbu uslub shu bo'lim oxirrog'ida batafsil yoritiladi). Biroq, biz hozir foydalangan dispersiyani topish usuli ushbu ko'rsatkich mazmunini to'laroq ochib berishi bilan ahamiyatlidir⁵.

Dispersiya ko'rsatkichi yordamida bizlar berilgan taqsimot qatorlari variatsiyalarining qaysi biri kattaligini aniqlashimiz mumkin. Biroq, yana bir standart og'ish deya ataladigan variatsiya o'lchami ham mavjud.

Dispersiya - deb taqsimot qatori elementlari bilan ularning o'rtacha ko'rsatkichi ayirmalari kvadratining o'rtachasiga aytiladi.

******Standart og'ish** deb ildiz ostidan chiqarilgan dispersiya ko'rsatkichiga aytiladi.

Standart og'ish dispersiyaga xos barcha xususiyatlarga ega. Dispersiya ko'rsatkichi hisoblab chiqilgan barcha bosqichlar standart og'ishni topishda ham o'tiladi.

Taqsimot qatorlari variatsiyalarini qiyoslashda standart og'ish ko'rsatkichidan ham foydalanish mumkin. Bizning xulosalarimiz dispersiyalarni qiyoslash orqali qilingan xulosalar kabi to'g'ri bo'ladi.

CHunki qaysi taqsimot qatori dispersiyasi katta bo'lsa uning standart og'ishi ham katta bo'lishi tayin.

Standart og'ish tavsifidan ushbu ko'rsatkichni hisoblab chiqish uchun dispersiya hisob-kitobidagidan ko'ra bitta amalni ko'p bajarishimiz zarurligi ko'rinib turibdi.

Standart og'ishni topish uchun qo'yidagi to'rt bosqichni bosib o'tish kerak:


1. taqsimot qatori elementlarining har biridan o'rtachani ayrib tashlab yangi ayirmalar qatorini hosil qilamiz;
2. har bir ayirmani kvadratga oshirib hosilalarini qo'shib chiqamiz;
3. ayirmalar kvadratlari yig'indisini taqsimot qatoritashkil topgan elementlari soniga bo'lamiz;
4. olingan natijani ildiz ostidan chiqaramiz.

Endi standart og'ishni ma'lum uzunlikdagi to'g'ri chiziq sifatida tasavvur qilib ko'ring. Agar taqsimot qatori elementlari bir-biriga yaqin joylashgan bo'lsa bizning chizig'imiz nisbatan qisqa bo'ladi.

Standart og'ish 0,94


⁵ Ермолаев О.Ю. Математическая статистика для психологов. М., 2003. 236 с. С.48-52 (мазмунидан фойдаланилди)

*Стандарт
ог'иш деб илдири-
остидан чиқ-
рилган диспер-
сия кўрсатки-
чига айтилади*



Agar taqsimot qatori elementlari tarqoqroq bo'lsa unda standart og'ishni ifodalovchi to'g'ri chizig'imiz ham nisbatan uzun bo'ladi.

Standart og'ish



**** **Dispersiyaning tadbiqiy-psixologik mazmuni.** Dispersiya tahlil etilayotgan ma'lumotlar bir hil emasligini belgilovchi muhim o'lchov birligidir. Masalan, muayyan maktabning boshlang'ich sinf o'quvchilari tomonidan olingan aqliy taraqqiyotni o'lchashga mo'ljallangan test baholarining tarqoqligi ularning aqliy taraqqiyoti darajasi har hil ekanligini ko'rsatadi. Bir kishiga o'n kun mobaynida takror-takror taklif etilgan testga berilgan javoblar dispersiyasi uning javob berish chog'ida diqqati qay darajada jam bo'lganligi xususidagi ma'lumotni beradi. Aholisining yillik daromadi 50000 ming so'mdan bo'lgan ikki shaharni tasavvur qilib ko'ring. YUqori darajadagi dispersiyaga ega bo'lgan shaharda yillik daromadlarida katta tafovutlar mavjud odamlar yashashi aniqdir.

*** **Belgilar.** Deylik, X belgisi ma'lum bir taqsimot qatori elementlarining ifodasi uchun xizmat qilsin. Masalan, ushbu taqsimot qatori uch elementdan iborat bo'lib $X_1 = 1$, $X_2 = 3$, $X_3 = 5$ ga teng bo'lsin. Endi har bir element ko'rsatkichini kvadratga oshirdik deb faraz qilsak. Bizning vaziyatda $X_1^2 = 1$, $X_2^2 = 9$, $X_3^2 = 25$. Olingan natijalarni qo'shib chiqsak (ya'ni, $1+9+25=35$) Ushbu guruh elementlarining kvadrati yig'indisi $\sum X^2$ sifatida belgilanadi. (bizning misolda $\sum X^2 = 35$).

*** Boshlang'ich elementlar yig'indisi ΣX belgisi bilan ifodalanishi bizga ma'lum; bizning guruh uchun

$$\Sigma X = X_1 + X_2 + X_3 = 1 + 3 + 5 = 9$$

Elementlar yig'indisi kvadrati $(\Sigma X)^2$ belgisi orqali ifodalanadi; bizning misolda $(\Sigma X)^2 = (9)^2 = 81$.

Elementlar kvadrati yig'indisi, ΣX^2 , bilan elementlar yig'indisining kvadrati, $(\Sigma X)^2$, o'rtasidagi farqlarga e'tiboringizni qaratmoqchimiz. Birinchi vaziyatda, elementlarning har biri, individual tarzda, kvadratga oshirilib olingan natijalar qo'shiladi. Ikkinchi vaziyatda esa, elementlar avvaliga qo'shiladi keyin olingan natija kvadratga oshiriladi.

*** Muayyan elementlar guruhining o'rtacha qiymati konstanta bo'lib, u turli ko'rsatkichlarni hisob-kitob qilish paytida har bir elementdan ayrilib chiqadi. O'rtacha qiymat μ belgisi bilan ifodalanadi. Alohida elementlar bilan o'rtacha qiymat ayirmalarining kvadrati yig'indisi $\Sigma (X - \mu)^2$ qilib belgilanadi. Bundan, muayyan taqsimot qatori dispersiyasini hisoblash formulasi quyidagi ko'rinishga ega ekani kelib chiqadi:

$$\Sigma (X - \mu)^2 / N.$$

Dispersiyaning ramzi sifatida σ^2 (yunoncha **sigma kvadrati**), demak:

$$\sigma^2 = \Sigma (X - \mu)^2 / N.$$

Standart og'ish ramzi σ , demak:

$$\sigma = \sqrt{\Sigma (X - \mu)^2 / N}$$

Dispersiyani hisoblash formulalari.

YUqorida bizlar $\sigma^2 = \Sigma(X-\mu)^2/N$ ekanini aniqladik. Bundan tashqari yana ikki ushbu formulaga ekvivalent (o'rnini bosadigan) ifodalarni keltirib o'tishimiz mumkin: $\sigma^2 = \Sigma X^2 / N - (\Sigma X / N)^2$; $\sigma^2 = \Sigma X^2 / N - (\Sigma X)^2 / N^2$. So'ngi ifoda ba'zan quyidagicha yoziladi: $\sigma^2 = \Sigma X^2 / N - \mu^2$.

Mavzu bo'yicha savollar

1. Normal taqsimlanish ko'rsatkichlari nimalardan iborat?
2. Moda, mediana va o'rtacha qiymat orasidagi o'zaro bog'liqlik mavjud bo'ladimi?
3. Dispersiya nima?
4. Standart og'ish qanday hisoblanadi?

TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Kricheven A.N, SHikin ye.V, D'yachkov A.G. Matematika dlya psixologov. M. 2003 g.
2. Sidorenko ye.N Metodi matematicheskoy obrabotki v psixologii. Rech', SPb, 2000 g.
3. Nishonova Z.T, Qarshiyeva D.S. "Eksperimental psixologiya" T:2007.

4. Nasledov A.D. Matematicheskiye metodi psixologicheskogo issledovaniya. Analiz i interpretatsiya dannix. SPb., Rech', 2004.

5. Borovikov V. Statistika. Iskustvo analiza dannix na komp'yutere. SPb., 2003.

6. Suxodolskiy G.V. Matematicheskiye metodi psixologii. SPb., 2003.

7. Ermolayev O.YU. Matematicheskaya statistika dlya psixologov. M., 2003.

5- mavzu.. Normal taqsimlanish parametrlarini baholashning statistik metodlari

Reja:

1. Boksplot tuzish.
2. Taqsimlanish asimmetriyasi va eksess ko'rsatkichlarini hisoblash.
3. Empirik taqsimlanishning ehtimollar nazariyasi bilan bog'liqligi.

Tayanch so'zlar: *normal taqsimlanish, moda, mediana, o'rtacha, dispersiya, boksplot, grafik usul.*

Xossaning taqsimoti deb uning turli qiymatlarini namoyon bo'lishida kuzatilayotgan qonuniyatlarga aytiladi. Psixologik tadqiqotlarda asosan normal taqsimotlarga ishora qilinadi.

Normal taqsimot xossaning quyi va yuqori qiymatlari nisbatan kam uchrab, o'rtacha qiymatga yaqin ko'rsatkichlar ko'p uchrashi bilan belgilanadi. Ushbu taqsimot normal deb u tabiiy-ilmiy tadqiqotlarda ko'p uchraganligi uchun har qanday xossaning ommaviy tasodifiy namoyon bo'lishi me'yori sifatida qabul qilingan. Ushbu taqsimot turli davrlarda turli olimlar tomonidan ochilgan qonuniyatga bo'ysunadi: Muavr (1733) Angliyada, Gauss (1809) Germaniyada va Laplas (1812) Fransiyada.

Boksplot usulida ma'lumotlarni taqdim etishda medianna, kvartillar orasidagi masofa hamda taqsimlanish limiti ko'rgazmali tarzda aks ettiriladi.

Boksplotlarni tuzishda quyidagilarga e'tiborni qaratish lozim:

1. Quyi va yuqori kvartillarni qiymatlarini aniqlash. Q_1 ; Q_3
2. Kvartillar orasidagi masofani aniqlash $\Delta Q = Q_3 - Q_1$
3. Haddan yuqori va haddan past bo'lgan qiymatlarni topish.

Yuqori sakrovchilar-bular $Q_3 + 1,5\Delta Q$ dan to $Q_3 + 3\Delta Q$ diapazonda yotuvchi tanlamalardir.

Pastki sakrovchilar-bular $Q_1 - 3\Delta Q$ dan to $Q_1 - 1,5\Delta Q$ gacha diapazonda yotuvchi tanlamalar hisoblanadi.

2. Ekstremal qiymatlarni aniqlash.

Yuqori ekstremal qiymatlar bular $Q_3 + 3\Delta Q$ dan katta bo'lgan ko'rsatkichlar hisoblanadi.

Quyi ekstremal qiymatlar bular $Q_1 - 3\Delta Q$ dan past bo'lgan ko'rsatkichlar olinadi.

3. Maksimal va minimal to'g'ri tuzatilgan qiymatlarni aniqlash.

To'g'ri tuzatilgan maksimal ko'rsatkichlar bu yuqori sakrovchi ham, yuqori ekstremal ham bo'lmagan eng katta sonidir.

To'g'ri tuzatilgan minimal ko'rsatkichlar bu pastki sakrovchi ham, quyi ekstremal ham bo'lmagan eng kichik sonlardir.

Normal taqsimotning grafik ko'rinishi tadqiqotchi-psixolog nigohi uchun odatiy bo'lgan qo'ng'iroqsifat egri chiziqqa o'xshaydi.

Taqsimot parametrlari- bu xossaning qiymatlari asosan qayerda joylashganligini, ushbu xossalar qanchalar o'zgaruvchan ekanligini, xossaning ma'lum qiymatlari asosan qanday namoyon bo'lishligini ko'rsatadigan miqdoriy tavsiflardir.

Amaliy jihatdan eng ahamiyatli parametrlar qatoriga o'rtacha arifmetik qiymat, dispersiya, asimmetriya va eksesslar kiradi.

U yoki bu omillar o'rtachadan yuqori yoki o'rtachadan quyi qiyamatlarning ko'p uchrashiga sabab bo'lsa asimmetrik taqsimotlar vujudga keladi. Agar taqsimot qatorida xossaning quyi qiymatlari ko'p uchrasa chapyoqlama yoki musbat asimmetriya ko'zga tashlanadi. Mabodo xossaning yuqori qiymatlari ko'p uchrasa o'ngyoqlama yoki manfiy asimmetriya ko'zga tashlanishi mumkin.

Asimmetriya ko'rsatkichi quyidagi formula orqali topiladi:


$$A = \frac{\sum_{i=1}^n (x_i - \bar{x})^3}{n^3}$$

Simmetrik taqsimotlarda $A=0$ bo'ladi.


Eksess ko'rsatkichi quyidagi formula orqali topiladi:

$$E = \frac{\sum_{i=1}^n (x_i - \bar{x})^4}{n^4} - 3$$


Simmetrik taqsimotlarda $ye = 0$ bo'ladi.




CHapyoqlama, musbat asimmetriya



Ўнгёклама, манфий асимметрия



Мусбат эксцесс



Манфий екссесс.

Мисол. Bizga quyidagi ko'rinishga ega taqsimot qatori berilgan. Mazkur taqsimot qatori normal ko'rinishga qanchalar yaqin ekanini tekshirib ko'rsak.

№	x_i	$(x_i - \mu)$	$(x_i - \mu)^2$	$(x_i - \mu)^3$	$(x_i - \mu)^4$
1	11	0,94	0,884	0,831	0,781
2	13	2,94	8,644	25,412	74,712

3	12	1,94	3,764	7,301	14,165
4	9	-1,06	1,124	-1,191	1,262
5	10	-0,06	0,004	0	0
6	11	0,94	0,884	0,831	0,781
7	8	-2,06	4,244	-8,742	18,009
8	10	-0,06	0,004	0	0
9	15	4,94	24,404	120,554	595,536
10	14	3,94	15,524	61,163	240,982
11	8	-2,06	4,244	-8,742	18,009
12	7	-3,06	9,364	-28,655	87,677
13	10	-0,06	0,004	0	0
14	10	-0,06	0,004	0	0
15	5	-5,06	25,604	-129,554	18,009
16	8	-2,06	4,244	-8,742	1725,467
jami	161		102,944	30,468	

Jadvaldagi hisob-kitoblarga kirishishdan avval bizlar o'rtacha arifmetik qiymatni topishimiz zarur bo'lgan.

$$\sum_{i=1}^n x_i$$

bunda, x_i - xossaning alohida kuzatilayotgan qiymati, n – kuzatuvlar miqdori.

$\mu = 161/16=10,06$ Standart og'ish esa:

$$\sqrt{\frac{\sum_{i=1}^n (x_i - \mu)^2}{n-1}}$$

bunda, x_i - xossaning alohida kuzatilayotgan qiymati, μ - o'rtacha arifmetik qiymat, n – kuzatuvlar miqdori.

$$\sqrt{\frac{102.944}{16-1}} = \sqrt{6.893} = 2.62$$

Asimmetriya va eksess hamda ularning reprezentativlik xatolari quyidagi formulalar asosida topiladi:

$$A = \frac{\quad}{3}$$

$$m_a = \sqrt{\frac{6}{n}}$$

$$\frac{\sum (x_i - \bar{x})^2}{n-1} = \frac{\sum x_i^2 - \frac{(\sum x_i)^2}{n}}{n-1}$$

$$m_e = 2 \sqrt{\frac{6}{n}}$$

bunda, $(x_i - \mu)$ - markaziy qiymatga nisbatan bo'lgan og'ishlar, σ – standart og'ish, n -sinaluvchilar soni.

$$A = 30.4683 \pm 0.106$$

$$m_a = \sqrt{\frac{6}{16}} = 0.61$$

$$E = \frac{1725.467}{16 \cdot 2.62^4} = 0.711$$

$$m_e = 2 \sqrt{\frac{6}{16}} = 1.22$$

Empirik taqsimotlarning normal taqsimotlardan muqarrar farq qilishlari uchun ularning asimmetriya va eksess ko'rsatkichlari o'zlarining reprezentativlik xatosidan uch yoki undan ortiq barobarga oshishi zarurligini taqozo qiladi: A

$$t_a = 3 m_a E$$

$$t_e = 3 m_e$$

bizning misolda:

$$t_a = 0.61 \pm 0.174$$

$$\pm 0.711$$

$$t_e = 0.583$$

$$1.22$$

Ikkala ko'rsatkich ham o'zlarining reprezentativlik xatosidan uch barobar ortiq emasligi, bundan esa ushbu xossaning taqsimoti normal taqsimotdan muqarrar darajada farq qilmasligi ko'rinib turibdi.

Endi ye.I Pustil'nik tomonidan taklif etilgan formula bo'yicha tekshirib ko'ramiz.

$$A_k = 3 \sqrt{\frac{6(n-1)}{(n-1)(n-3)}}$$

$$E_k = 5 \sqrt{\frac{n^2 - 1}{n^2 - (n(n-23)) - (n(n-35))}}$$

bunda n –kuzatuvlar soni bizning xolda:

$$A_k = 3 \sqrt{\frac{6(16-1)}{(16-1)(16-3)}} = 3 \sqrt{\frac{90}{323}} = 1.58$$

$$E_k = 5 \sqrt{\frac{16^2 - 1}{16^2 - (16(16-23)) - (16(16-35))}} = 5 \sqrt{\frac{11531169888}{3.89}}$$

$$A_{emp} = 0,106 \quad A_{emp} < A_k$$

$$E_{emp} = -0,711$$

$$E_{emp} < yek$$

N.A.Ploxinskiy va ye.I.Pustil'nik mezonlari bir hil natija berdi, ya'ni xossaning taqsimoti normal taqsimot qatordan muqarrarlik darajasida farq qilmasligini ko'rsatdi.

Mavzu bo'yicha savollar

1. Boksplot qanday tuziladi?
2. Taqsimlanish asimmetriyasi qanday hisoblanadi?
3. Taqsimlanish eksess ko'rsatkichlari qanday hisoblanadi?
4. Normal taqsimot grafik tarzda ifodanganda qanday ko'rinishga ega bo'ladi?
5. Musbat asimmetriya nimaga bog'liq?
6. Manfiy asimmetriya nimaga bog'liq?

TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Kricheven A.N, SHikin ye.V, D'yachkov A.G. Matematika dlya psixologov. M. 2003 g.
2. Sidorenko ye.N Metodi matematicheskoy obrabotki v psixologii. Rech', SPb, 2000 g.
3. Nishonova Z.T, Qarshiyeva D.S. "Eksperimental psixologiya" T:2007.
4. Nasledov A.D. Matematicheskiye metodi psixologicheskogo issledovaniya. Analiz i interpretatsiya dannix. SPb., Rech', 2004.
5. Borovikov V. Statistika. Iskustvo analiza dannix na komp'yutere. SPb., 2003.
6. Suxodolskiy G.V. Matematicheskiye metodi psixologii. SPb., 2003.
7. Ermolayev O.YU. Matematicheskaya statistika dlya psixologov. M., 2003.

6- seminar mavzusi.. Normal taqsimlanish nazariyasining tatbiqiy jihatlar

Reja:

1. Standart normal taqsimlanish tushunchasi.
2. Bosh ko'plik o'rtachasi uchun ishonchlilik chegaralari.
3. Parametrik va noparametrik mezonlar to'g'risida umumiy tushuncha.

Tayanch so'zlar: normal taqsimlanish, moda, mediana, o'rtacha, dispersiya, standart og'ish, parametrik mezon, noparametrik mezon.

Tanlamadagi ma'lumotlarning normal taqsimlanganligidan guvohlik beruvchi ko'rsatkichlar quyidagilardir:

- tanlamaning simmetrik taqsimlanganligi (gistogramma yoki boksplot usulida ko'rgazmali tarzda ifodalash mumkin).

- Medianna va o'rtacha qiymat bir biriga teng yoki juda yaqin.

- Assimetriya va eksess ko'rsatkichlari nolga yaqin qiymatga ega.

Boksplot usulida ma'lumotlarni taqdim etishda medianna, kvartillar orasidagi masofa hamda taqsimlanish limiti ko'rgazmali tarzda aks ettiriladi.

Boksplotlarni tuzishda quyidagilarga e'tiborni qaratish lozim:

1. Quyi va yuqori kvartillarni qiymatlarini aniqlash. Q_1 ; Q_3

2. Kvartillar orasidagi masofani aniqlash $\Delta Q = Q_3 - Q_1$
3. Haddan yuqori va haddan past bo'lgan qiymatlarni topish.

Yuqori sakrovchilar-bular $Q_3 + 1,5\Delta Q$ dan to $Q_3 + 3\Delta Q$ diapazonda yotuvchi tanlamalardir.

Pastki sakrovchilar-bular $Q_1 - 3\Delta Q$ dan to $Q_1 - 1,5\Delta Q$ gacha diapazonda yotuvchi tanlamalar hisoblanadi.

4. Ekstremal qiymatlarni aniqlash.

Yuqori ekstremal qiymatlar bular $Q_3 + 3\Delta Q$ dan katta bo'lgan ko'rsatkichlar hisoblanadi.

Quyi ekstremal qiymatlar bular $Q_1 - 3\Delta Q$ dan past bo'lgan ko'rsatkichlar olinadi.

5. Maksimal va minimal to'g'ri tuzatilgan qiymatlarni aniqlash.

To'g'ri tuzatilgan maksimal ko'rsatkichlar bu yuqori sakrovchi ham, yuqori ekstremal ham bo'lmagan eng katta sonidir.

To'g'ri tuzatilgan minimal ko'rsatkichlar bu pastki sakrovchi ham, quyi ekstremal ham bo'lmagan eng kichik sonlardir.

6. Ordinata o'qlari bo'yicha mediananing ko'rsatkichlarini, yuqori va quyi kvartillarni, ekstremal ko'rsatkichlarni, to'g'ri tuzatilgan maksimal va minimal ko'rsatkichlarni joylashtiramiz.

Gorizontal chiziqlar bo'yicha kesmalarni bir birining tagiga joylashtiramiz.


Kesmalar yuqori va quyi kvartillarga mos keladi, ular to'g'ri to'rtburchak shakliga keladi. Bu to'g'ri to'rtburchakda kesma va mediana ham mavjud.

Maksimum ko'rsatkichlarga mos keladigan ko'rsatkichlar yuqori kvartillar bilan o'rta perpindikulyar orqali birlashtiriladi.

Quyi ko'rsatkichlar esa quyi kvartillar bilan birlashtiriladi.

Sakrovchilar (O) va ekstremal ko'rsatkichlar esa (E) bilan belgilanadi

Bu quyidagilardir:



YUqorida keltirilgan holatlardan quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. Ko'pgina hollarda psixologik tadqiqotlar normal taqsimlanishga yaqin ko'rsatkichlarga ega bo'lishi mumkin.
2. Normal taqsimlanish ko'pgina hollarda to'liq simmetrik bo'lmaydi (o'ng tamonlama yoki chap tomonlama assimetriya bo'lishi mumkin).

Misol tariqasida mashhurlikni aniqlash savolnomasi bo'yicha olingan ma'lumotlarning chastotali tahlilini keltirish mumkin.

Razryadlarni nomeri	Sinflar orasidagi intervallar	Testdan o'tganlarning soni
1	2,5 - 2,9	2
2	3 - 3,4	0
3	3,5 - 3,9	2
4	4 - 4,4	2
5	4,5 - 4,9	3
6	5 - 5,4	3

7	5,5 - 5,9	7
8	6 - 6,4	7
9	6,5 - 6,9	8
10	7 - 7,4	17
11	7,5 - 7,9	22
12	8 - 8,4	17
13	8,5 - 8,9	22
14	9 - 9,4	13
15	9,5 - 9,9	8
16	10 - 10,4	13

CHiziqli grafiklarning afzalligi shundaki, ular istalgan ikkita nuqta orasidagi «egri chiziq ostidagi maydon» to'g'risida fikr yuritishga imkon beradi. Bunda:

maydon X ma'lumotlar soni X ma'lumotlar soni (foizi) = ehtimol. Ushbu malohazalardan quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. Psixologik o'lchovlar aksariyat holda qisman normal taqsimlanishga ega bo'ladilar.
2. Normal taqsimlangan ma'lumotlar aksariyat hollarda to'liq simmetrik shaklni hosil qilmaydi (o'ng tamonlama, chap tamonlama assimetriya holatlari kuzatiladi).
3. Amalda ixtiyoriy ravishda tanlangan har qanday maydon yoki taqsimlanishda mavjud bo'lgan ikkita qiymat orasidagi masofani aniqlash mumkin.

Standart normal taqsimlanish va Z qiymatlari uchun ehtimollar jadvali.

Endi biz test natijalariga ko'ra 7-9 ballar orasidagi qiymatlarga ega bo'lgan talabalarning necha foizga tengligini hisoblashga urinib ko'rishimiz mumkin.

Agar biz egri chiziq ostidagi barcha maydon yuzasi 1 ga teng deb faraz qilsak, u holda 7 va 9 qiymatlari orasidagi maydon yuzasi 7-9 ballga ega bo'lgan talabalarning foizlaridagi nisbiy qiymatiga tengdir, shu bilan birga bu foiz yangi bir talabaning 7-9 ballar orasidagi bir qiymatga ega bo'lish ehtimolini ham aks ettiradi.

Demak, asosiy masalamiz 7 va 9 ballari orasidagi egri chiziq ostidagi maydonning yuzasini hisoblashdan iborat. Buning ikkita yo'li bor:

- Juda murakkab hisoblashlarni amalga oshirish (ya'ni integralni hisoblash) lozim.
- Har qanday real o'zgaruvchining qiymatlari bilan bog'liq maydonning yuzasini hisoblashga yordam beradigan maxsus jadvaldan foydalanish.

Bunday jadval haqiqatda mavjud bo'lib o'ta murakkab hisob-kitoblarni amalga oshirish zaruratini yo'qqa chiqaradi. Bu z qiymatlarining ehtimollari jadvalidir. Biroq bu jadvalning salbiy tomoni shundaki, undan foydalanish uchush:

- Bizning o'zgaruvchimiz normal taqsimlanishga ega deb qabul qilishga majburiy.
- Ushbu o'zgaruvchining o'rtacha arifmetik qiymati va standart og'ishidan foydalanib, kerakli qiymatlarni z qiymatlariga aylantirishimiz lozim. Bu yerda gap z harfi bilan

nomlanadigan o'rtacha qiymati 0 ga, standart og'ishi esa 1 teng bo'lgan standart normal taqsimlanish haqida borayapti. □

O'rtachadan (0 dan) 2 qiymatigacha bo'lgan oraliq	«Egri chiziq ostidagi maydon yuzasi»	Taqsimlanishning kamroq qismi	Taqsimlanishning ko'proq qismi
0,98	0,3365	0,1635	0,8365
0,99	0,3389	0,1611	0,8389
1,00	0,3413	0,1587	0,8413
1,01	0,3438	0,1562	0,8438

Standart normal taqsimlanishning xarakterli xususiyatlaridan biri shundaki barcha qiymatlarning 68 %i o'rtachadan ± 1 standart og'ish oralig'ida yotadi. ± 2 standart og'ishlik oraliqda esa qiymatlarning 95%i mavjud. Boshqacha aytilsa -2 standart og'ishdan kichik va $+2$ standart og'ishdan yuqori qiymatlar 5%ni tashkil etadi.

Ma'lumotlarni Z qiymatlariga aylantirish

Har bir alohida olingan taqsimlanish uchun maydon yuzasini ifoda etuvchi qiymatlarni ta'minlaydigan jadvalni ishlab chiqish o'ta mashaqqatli va juda kam samara beradigan hisob-kitoblarni amalga oshirish zaruratini tug'diradi.

SHu sababli standart normal taqsimlanish uchun ma'mum jadval ishlab chiqilgan bo'lib, bu jadvaldan foydalanishdan avval har qanday o'rganilayotgan ma'lumotlarni standart normal taqsimlanishga aylantiriladi.

Har qanday ma'lumotlar qatorini standart normal taqsimlanishga aylantirish formulasi quyidagidir:

X qiymat uchun z ko'rsatkichidir. Bu holatni biz yuqorida keltirilgan formulada ko'rsatib o'tgandik.

$$\begin{aligned}
 z &= \frac{X - \mu}{\sigma} \\
 &= \frac{9.2 - 7.6}{1.6} \\
 &= \frac{1.6}{1.6} \\
 &= 1
 \end{aligned}$$

Har qanday z qiymatining ehtimollar maydonini topish uchun z qiymatlari ehtimollar jadvaliga qarash lozim.

Etarli bilimlarni olganimizdan so'ng z ko'rsatkichlar jadvallaridan foydalangan holda quyidagi masalalarni yechishimiz mumkin.

1-masala. Agar o'rtacha 7,6; standart og'ish 1,6 ga teng bo'lsa, talabalarning necha foizi 9,2 dan yuqori ballga ega bo'lishi mumkin.

Bizni 1 sigmadan yuqori bo'lgan z qiymatlari maydoni qiziqtirgani sababli taqsimlanishning kamroq qismini topamiz. YA'ni 0,50,3413q0,1587.

Demak talabalarning 9,2 dan yuqori ballga ega bo'lish ehtimoli 15,87%ga teng.

2-masala. Test bo'yicha 7 dan 9 gacha ballarga ega bo'lgan talabalar necha foizni tashkil etadilar.

Berilgan		Z ko'rsatkichga aylantirish	«Egri chiziq ostida maydon»
O'rtacha qiymat	6		

Standart og'ish	6		
Oraliqning pastki chegarasi		-0,38	0,1480
Oraliqning yuqori chegarasi		0,88	0,3106
JAMI			0,4586

$$Z_7 = 7 - 7.6G'1.6 - 0.38 \quad Z_9 = 9 - 7.6G'7.6 = 0.88$$

$$0.1480 + 0.3106 = 0.4586$$

Demak talabalarning 7-9 ballgacha bo'lgan natijalarga ega bo'lish ehtimoli 45,86% ga teng.

Noparametrik ma'lumotlar- o'lchov orqali emas, balki voqelikni tasniflash, guruhlariga ajratish orqali olingan sonlar qatori bo'lib, muayyan ob'jektning u yoki bu sifatga ega ekanligini ifoda etadi.

Parametrik ma'lumotlar- miqdoriy o'lchovlar bo'lib, uzluksiz taqsimlanishni namoyon etadilar hamda odatda normal taqsimlanish qonuniga mos keladi.

Mavzu bo'yicha savollar

1. Standart normal taqsimlanishning xarakterili xususiyati nimada?
2. Parametrik ma'lumotlar deb qanday ma'lumotlarga aytiladi?
3. Noparametrik ma'lumotlarga qanday ma'lumotlar kiradi?
4. taqsimot qatorining o'rtachasi qanday topiladi?
5. Mediana deb qaysi elementga aytiladi?

TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Kricheven A.N, SHikin ye.V, D'yachkov A.G. Matematika dlya psixologov. M. 2003 g.
2. Sidorenko ye.N Metodi matematicheskoy obrabotki v psixologii. Rech', SPb, 2000 g.
3. Nishonova Z.T, Qarshiyeva D.S. "Eksperimental psixologiya" T:2007.
4. Nasledov A.D. Matematicheskoye metodi psixologicheskogo issledovaniya. Analiz i interpretatsiya dannix. SPb., Rech', 2004.
5. Suxodolskiy G.V. Matematicheskoye metodi psixologii. SPb., 2003.
6. Ermolayev O.YU. Matematicheskaya statistika dlya psixologov. M., 2003.

7- mavzu. Ma'lumotlarni statistik taqqoslash metodlarini tanlashning asosiy mezonlari

Reja:

1. Variatsion qatorning normal taqsimlanishga mosligini aniqlash.
2. Kolmogorov-Smirnov mezoni.
3. Ikki dispersiyaning gomogenligini aniqlash. Fisher mezoni.

Tayanch so'zlar: variatsion qator, normal taqsimlanish, Kolmogorovsmirnov mezon, dispersiya, Fisher mezon.

Matematik statistika mutaxassislarining fikriga ko'ra o'rtacha arifmetik qiymat aniq bir son orqali ifodalanadi. Uning asosida variatsion qator to'g'risida to'laqonli tasavvurga ega bo'lish qiyin. O'rtacha qiymatdan individual og'ish holatlarini o'rganish ham juda muhim ahamiyatga ega bo'lib, o'rtachadan o'ngga yoki chap tomonga og'ish qay darajada namoyon bo'layotgani ko'plikning asosiy ko'rsatkichlaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Shuning uchun ham markazga intilish tendensiyasidan tashqari markazdan qochish tendensiyasi ham mavjudligini ko'rsatuvchi statistik ko'rsatkichlarin tahlil qilishga urinib ko'ramiz. Variatsion qatordagi elementlarning markaz atrofida qay darajada to'plangani yoki tarqalganini aks ettiruvchi ko'rsatkichlar **tarqalish tavsifi** deb atalib, ular o'rtachadan og'ish yoki variativlik bilan belgilanadi. Og'ish – individual farqlar demakdir. Varianslar – individual farqlarning raqamlar orqali ifodalanishidir. Og'ish bu voqealarning sifat jihatdan tavsiflasi, varianslar ularning miqdoriy ifodasidir.

Taqsimlanishdagi o'zgaruvchanlikni o'lchashning bir necha xil usullari mavjud bo'lib ularning eng soddasi taqsimlanish ko'lamidir, ya'ni maksimal va minimal ko'rsatkichlar orasidagi farqlar hisoblanadi.

$$d=x_{\max}-x_{\min}$$

Biroq, chekka nuqtalarning (ekstremal, favqulodda qiymatlarning ta'siriga o'ta sezgirligi bois, bu o'lchov turi eng yaxshi o'lchov bo'lib hisoblanmaydi.

Statistik hisobning asosiy masalalaridan biri parametrlar deb ataladigan va variatsion qatorning xususiyatlarini yetarli darajada ifodalab beradigan xarakteristikalarini aniqlashdan iborat. Variatsion qatorlar quyidagilarga asosan bir-biridan farq qilishi mumkin:

a) belgining atrofida ko'pchilik variantlar to'plangan qiymati bo'yicha. Belgining bu qiymati to'plamda belgining rivojlanish darajasini yoki boshqacha aytganda, qatorning markaziy tendensiyasini, ya'ni qatorning o'ziga xosligini aks ettiradi;

b) variantalarning qator markaziy tendensiyasini aks ettiruvchi qiymat atrofida o'zgaruvchanligi darajasi, ya'ni o'sha qiymatdan farq qilish darajasi bo'yicha.

Bunga mos ravishda statistik ko'rsatkichlar ikki gruppaga bo'linadi: qatorning markaziy tendensiyasini (yoki rivojlanish darajasini) ifodalovchi ko'rsatkichlar; qatorning o'zgaruvchanlik darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlar.

Birinchi gruppaga turli "o'rtacha qiymatlar": moda, mediana, arifmetik o'rtacha qiymat, geometrik o'rtacha qiymat kiradi. Ikkinchi gruppaga: absolyut o'rtacha farq, o'rtacha kvadratik farq, dispersiya, variatsiya va asimmetriya koeffitsiyentlari kiradi.

Statistik mezonlar- ishonchli xulq-atvorni ta'minlovchi hal qiluvchi qoidadir, ya'ni yanglish gipotezani inkor etib haqiqiy gipotezani yuqori muqarrarlik darajasida qabul qilinishidir.

Statistik mezonlardan biri Kolmogorov-Smirnov mezon hisoblanadi. Ushbu mezonning formulasi quyidagicha:

$$D_n = \sup_x |F_n(x) - F(x)|,$$

Ikki tanlama dispersiyalarining gomogenligini aniqlashda Fisher mezonidan foydalaniladi. Ushbu mezon formulasi quyidagicha:

$$F_{\text{эмн}} = \frac{\sigma_x^2}{\sigma_y^2},$$

Бунда, σ_x^2 , σ_y^2 -- birinchi va ikkinchi tanlanmaning dispersiyalari.

Statistik mezonlar muayyan sonni hisob-kitob qilish metodini, shuningdek, ushbu sonning o'zini ham ifodalaydi.

Bizlar tafovutlar muqarrarlighi x^2 (xi kvadrat) mezoni bo'yicha aniqlangan deganimizda, muayyan sonni topish uchun x^2 metodidan foydalanganimizni nazarda tutamiz.

Keyin $x^2=12,676$ deganimizda esa, x^2 metodi bo'yicha hisoblanib topilgan sonni nazarda tutgan bo'lamiz. Ushbu son mezonning empirik qiymati sifatida qayd etiladi.

Mezonning empirik va kritik (tafovutlar muqarrarligining quyi ostonasi) qiymatlari o'rtasidagi munosabatlarga qarab bizlar nulga doir gipoteza o'z isbotini topayotgani yoki inkor etilayotgani xususida fikr yuritishimiz mumkin bo'ladi. Masalan, agar $x_{\text{emp}}^2 > x_{\text{kr}}^2$ bo'lsa, N_0 inkor etiladi.

Aksariyat xollarda, tafovutlar muqarrarlighi tan olinishi uchun, empirik qiymat kritik qiymatdan balandroq bo'lishi zarur. Biroq ushbu holatning aksi ham bo'lishi mumkin (Mann-Uitni mezoni).

Ba'zi bir vaziyatlarda mezonni hisob-kitob qilish formulasi o'z ichiga tadqiq etilayotgan tanlanmadagi kuzatuvlar sonini ham oladi va ushbu son n ramzi bilan ifodalanadi. Bunday paytda mezonning empirik qiymati statistik gipotezani tekshirishga mo'ljallangan test o'rniga o'tadi. Maxsus jadvallardan bizlar ushbu empirik qiymat tafovutlar qanday statistik muqarrarlik darajasiga xos ekanini aniqlaymiz.

Erkinlik darajasini ko'rsatkichi v bu variatsion qator sinflari sonidan ushbu qator tashkil topgan shartlar ayirmasidir. Bunday shartlarga tanlanma hajmi, o'rtacha qiymat, dispersiyalar taalluqlidir⁶.

Agar bizlar kuzatuvlarni biron bir nominal shkala bo'yicha tasniflab tasnifning har bir yacheykasiga taalluqli kuzatuvlar miqdorini hisoblab chiqqan bo'lsak, unda bizlar chastotalarga oid variatsion qatorga ega bo'lgan bo'lamiz. Uni tarkib toptirishdagi yagona shart bu tanlanma hajmidir. Bizda uchta sinf bor deylik: «Komp'yuterda ishlashni biladi – faqatgina ma'lum bir amallarni bajara oladi – komp'yuterda ishlashni bilmaydi». Tanlanma ellik kishidan iborat. Agar birinchi sinfga yigirmata sinaluvchi kirs, ikkinchi sinfga ham yigirmata sinaluvchi kirs, uchinchi sinfga qolgan o'n kishi kirishi lozim. Bizlar bitta shart- tanlanma hajmi – bilan

⁶ Ермолаев О.Ю. Математическая статистика для психологов. М., 2003. 236 с. С-52 (мазмунидан фойдаланилди)

cheklanganmiz. SHuning uchun ham bizlar necha kishi komp'yuterda ishlashni bilmasligi xususidagi ma'lumotlarni yo'qotib qo'ygan bo'lsak-da, birinchi va ikkinchi sinfga qirq kishi taalluqli ekanini bilganimiz bois ushbu qiymatni oson aniqlashimiz mumkin bo'ladi. Bizlar uchinchi bo'limdagi sinaluvchilar miqdorini aniqlashda erkin emasmiz, bizning «erkimiz» tasniflash yacheykasining birinchi ikki sinfiga taalluqlidir:

$$v = s - 1 = 3 - 1 = 2$$

Bizning klassifikatsion sinflarimiz 10 bo'lgan taqdirda ham bizlar faqatgina ularning to'qqiztasidagina erkin bo'la olar edik, agar bizda yuzta sinf bo'lsa unda ularning to'qson to'qqiztasida va h.k.

Mavzu bo'yicha savollar

1. Variatsion qator tushunchasi nimani anglatadi?
2. Variatsion qatorni tartiblashda nimalarga ahamiyat qaratiladi?
3. Variatsion qatorning normal taqsimlanishga mosligi qanday aniqlanadi?
4. Natijalarni ranjirlash qanday amalga oshiriladi?
5. Statistik mezonlar nimani anglatadi?
6. Fisher mezoni nimani aniqlashda foydalaniladi?

TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Kricheven A.N, SHikin ye.V, D'yachkov A.G. Matematika dlya psixologov. M. 2003 g.
2. Sidorenko ye.N Metodi matematicheskoy obrabotki v psixologii. Rech', SPb, 2000 g.
3. Nishonova Z.T, Qarshiyeva D.S. "Eksperimental psixologiya" T:2007.
4. Nasledov A.D. Matematicheskiye metodi psixologicheskogo issledovaniya. Analiz i interpretatsiya dannix. SPb., Rech', 2004.
5. Suxodolskiy G.V. Matematicheskiye metodi psixologii. SPb., 2003.
6. Ermolayev O.YU. Matematicheskaya statistika dlya psixologov. M., 2003.

8- mavzu. O'zaro bog'liq bo'lmagan ikki tanlamani taqqoslash uchun St'yudent t mezon

Reja:

1. Parametrik va noparametrik ma'lumotlarni taqqoslash mezonlari.
2. O'zaro bog'liq bo'lmagan guruhlarda St'yudent t mezonini qo'llash.
3. Dispersiyalar gomogenligi aniqlanganda ikki tanlamaning o'rtacha qiymatlarini taqqoslash.
4. Dispersiyalar har xil, ammo tanlama hajmlari bir xil bo'lganda guruhlarning o'rtacha qiymatlarini taqqoslash.

5. Dispersiyalari va tanlama hajmlari turlicha bo'lgan guruhlarining o'rtacha qiymatlarini taqqoslash.

Tayanch so'zlar: taqsimot qatori, dispersiya, standart og'ish, St'yudent t mezon, gomogenlik.

Tadqiqotlarning aksariyati sinaluvchilarni turli mashg'ulotlar davomida bir necha marta tekshirishga asoslangan bo'ladi. YA'ni ayni bir sinaluvchilar guruhi bilan turli shart-sharoitlarda qayta-qayta sinovlardan o'tkazilib, ularning u yoki bu xususiyatlari o'rganilishi mumkin. odatda bunday paytlarda mazkur mashg'ulotlar yoki shartsharoitlarda olingan ma'lumotlarning o'rtacha arifmetik qiymatlari solishtiriladi.

Bunday vaziyatlar juftlararo solishtirish yoki o'zaro bog'liq tanlama modeliga kiritiladi. Ma'lumotlar tarkibidagi elementlar turli vaqt va shart-sharoitlarda olinganligi bois, ular orasida farq mavjud bo'lishi mumkin, lekin bu holat ular orasida hech qanday aloqa yo'q degan xulosaga kelishimizga asos bo'la olmaydi.

SHakllantiruvchi eksperimentdan oldin va keyin o'tkaziladigan ikkita o'lchov o'zaro bog'liq tanlamalar qatoriga kiradi.

O'zaro bog'liq tanlamaga misollar:

1-tanlama formokologik preparat qabul qilishdan avvalgi holatda reaksiya vaqtini aniqlash testi bo'yicha olingan qiymatlar.

2- tanlamani ayni shaxslar dori vositasini iste'mol qilgandan so'ng olingan qiymatlar. YOKi

1-tanlama bir yoshli bolalar bo'lsa 2-tanlama 1-tanlamadagi bolalarning egizak qarindoshlari.

Ushbu misollarda keltirilgantanlamalar o'zaro bog'liq bo'lganligi tufayli ular orasidagi korrelyatsion munosabat bo'lishi mumkin.

St'yudent t-mezoni statistik tahlilning parametrik usullaridan biridir. SHu sababli ushbu usulni qo'llashdan avval solishtirilgan guruhlardagi ma'lumotlarning har ikkalasini ham normal taqsimlanishga mosligini tekshirish maqsadga muvofiqdir.

O'zaro bog'liq bo'lmagan ikki tanlamani taqqoslash uchun St'yudent t mezon quyidagi formula orqali topiladi:

$$t = \frac{M_1 - M_2}{\sqrt{m_1^2 + m_2^2}}$$

Bundan tashqari ushbu usulni qo'llashga qo'yiladigan talablardan yana biri har ikkala guruhning tanlama xajmlari 30 dan kam bo'lmasligi lozim. Mabodo biror bir guruhdagi ma'lumotlar normal taqsimlanishga mos kelmasa, yoki ularda qatnashgan sinaluvchilar soni 30dan kam bo'lsa Mann-Uitni mezon yoki boshqa shunga o'xshash noparametrik usullardan foydalanish zarur bo'ladi.

Styudent t-mezonining bir necha xil ko'rinishlari mavjud bo'lib, o'zaro bog'liq bo'lmagan guruhlarda ularning qo'llanilishi quyidagi holatlarga bog'liq:

1. Dispersiyalar gamogen yoki gamogen emas deb topilgan holatlar.

2. Tanlama xajmlari teng yoki turlicha bo'lgan holatlar.

Boshqacha aytilsa, taqsimlanish normalligini tekshirgandan keyingi bosqichda, guruhlardagi dispersiyalarning gomogenligini aniqlash maqsadga muvofiqdir. Dispersiyalarning gomogen yoki gomogen emas deb topilishiga qarab u yoki bu ko'rinishidan foydalanish haqida qaror qabul qilindi.

YUqorida aytilganlarni xulosalab aytish mumkinki, o'zaro bog'liq bo'lmagan guruhlarda Student t-mezonining quyidagi uch xil turi birdek muvaffaqiyatli ravishda ishlatilishi mumkin:

1. Dispersiyalar gomogen deb topilganda.
2. Dispersiyalar har xil, ammo tanlama xajmlari bir xil bo'lgan taqdirda.
3. Dispersiyalar va tanlama xajmlari turlicha bo'lgan taqdirda.

Dispersiyalar gomogenligi aniqlanganda ikki tanlamaning o'rtacha qiymatlarini taqqoslash $\mu_1 - \mu_2$

Misol:

Mexanika matematika fakul'tetining 61 nafar talabasi hamda geologiya fakul'tetining 63 nafar talabasi Ayzenk so'rovnomasi savollariga javob berdilar ekstroversiya introversiya ko'rsatkichi bo'yicha umumlashtirilgan ma'lumotlar quyidagi jadvalda keltirilgan:

	Мехмат (X_1)	Геология (X_2)	
Ўртача қиймат	11,28	14,38	
Стандарт оғиш	2,06	2,22	
Дисперсия	4,24	4,95	$F_{\kappa 1.43}$
N	61	63	$p > 0.05$

Dispersiyalar gomogen deb topildi. Endi ikkita faraz ilgani suriladi:

$N_0 : \mu_1 - \mu_2 = 0$ Matematik va geologlarning ekstroversiya va introversiya ko'rsatkichlari o'rtacha qiymatoari orasidagi farq ahamiyatsiz.

$N_1 : \mu_1 - \mu_2 \neq 0$ Matematik va geologlarning ekstroversiya, introversiya ko'rsatkichlari o'rtacha qiymatlari orasidagi farq statistik jihatdan ahamiyatli

1. Ishlatildaigan ko'rsatkichlar uchun erkinlik darajasi aniqlanadi

$$Df = n_1 + n_2 - 2 = 61 + 63 - 2 = 122$$

2. Jadvaldan kritik ko'rsatkich topiladi. Bunda $\alpha = 0,05$ ishonch darajasida, erkinlik darajasi $df = 122$ ga teng, bu ko'rsatkich jadvalda $t_{\tau} = 1,98$ ga teng.

3. **Taqqoslash:** Hisoblab topilgan t-qiymat jadvaldan topilgan (t_j) qiymatidan kichik bo'lsa N_0 faraz qabul qilinadi, aks holda inkor etilib, N_1 farazi qabul qilinadi. $t > t_j$, ya'ni $8,05 > 1,98$ bo'lgani uchun N_0 ni inkor etib N_1 ni qabul qilamiz, ya'ni geolog va matematik talabalari o'rtasidagi ekstraversiya va introversiya ko'rsatkichlari orasida statistik jihatdan ishonchli farq mavjud.

4. **Qaror qabul qilish:** mexanika matematika va geologiya fakul'teti talabalarining ekstraversiya va introversiya ko'rsatkichlari o'rtacha qiymatlari orasidagi farq 95%lik ishonch darajasida statistik jihatdan ahamiyatlidir ($t = G'$; $r < 0,05$).

Dispersiyalar har xil, ammo tanlama xajmlari bir xil bo'lganda guruhlarining o'rtacha qiymatlarini taqqoslash Misol:

Ushbu tadqiqot gerantopsixologiya yo'nalishida amalga oshirilgan bo'lib, qariyalar uyi va o'z oilalarida istiqomat qiluvchi qariyalar bilan sub'yektiv nazorat testi o'tkazilgan. Asosiy natijalar quyidagi jadvalda keltirilgan:

	Tanlama 1 Qariyalar istiqoma (X_1) uyida qiluvchil	Tanlama 2 O'z uyida istiqomat qiluvchilar (X_2)
O'rtacha qiymat	11,97	11,13
Standart og'ish	2,30	3,41
Dispersiya	5,27	11,64
N	30	30

Dispersiyalar 95% ishonch darajasida gamogen emas deb topildi
($F=2.21$, $p<0.05$).

Ikkita faraz ilgari surildi:

N_0 : $\mu_1 - \mu_2 \leq 0$ Qariyalar uyida va oilada istiqomat qiluvchi qariyalarning internallik ko'rsatkichlari o'rtacha arifmetik qiymatlari bo'yicha orasidagi farq ahamiyatsiz.

N_1 : $\mu_1 - \mu_2 \neq 0$ +ariyalar uyida va oilada istiqomat qiluvchi qariyalarning internallik ko'rsatkichlari o'rtacha qiymatlari orasidagi farq ahamiyatli.

1. Student t-mezonini quyidagi formula asosida hisoblanadi:
2. Erkinlik darajasi topiladi $Df=n-1=30-1=29$
3. 95% lik ishonch darajasida jadvaldan kritik ko'rsatkich topiladi, $\alpha=0,05$, $df=29$, kritik qiymat $t_j=2,04$.
4. **Taqqoslash:** Hisoblab topilgan t qiymati (1,11) jadvaldan topilgan t qiymatidan kichik bo'lgani sababli N_0 faraz qabul qilinadi, N_1 faraz inkor etiladi.

5. **Qaror qabul qilish:** +ariyalar uyida va o'z oilalarida istiqomat qiluvchi qariyalarning internallik ko'rsatkichlari bo'yicha o'rtacha qiymatlar orasidagi farq 95%lik ishonch darajasida statistik jihatdan ahamiyatsizdir (t_qG ; $r>0,05$).

Dispersiyalari va tanlama xajmlari turlicha bo'lgan guruhlarining o'rtacha qiymatlarini taqqoslash Misol:

Qarilik davri va keksalik yoshidagi shaxslarda internallik ko'rsatkichlari orasida farqni aniqlash. Asosiy birlamchi ma'lumotlar quyidagi jadvalda keltirilgan:

	Qarilik yoshi (X_1)	Keksalik yoshi (X_2)
O'rtacha	11,76	11,49
Standart og'ish	4,65	3,69
Dispersiya	21,58	13,64
N	37	43

O'rganilayotgan ma'lumotlarning dispersiyalari gomogen emas deb topildi (Fq1.58, $p < 0.05$).

Ikkita faraz ilgani surildi:

$H_0: \mu_1 - \mu_2 = 0$ Ikkala tanlama o'rtacha qiymatlari orasidagi farq ahamiyatsiz.

$H_1: \mu_1 - \mu_2 \neq 0$ Ikkala tanlama o'rtacha qiymatlari orasidagi farq ahamiyatli.

Statistik gipotezani tekshirish usuli.

1. Styudent mezoni quyidagi formula asosida hisoblab topildi:

2. Guruhlarning tanlama xajmlari turlicha bo'lganligi sababli ($n_1 n_2 \neq 0$) ikkala guruh erkinlik darajasi (df_{q36} va df_{q42}) uchun t qiymatlari $t_{1q2.02}$ va $t_{2q2.02}$ aniqlanadi: $\alpha_{q0.05}$ G' Bu yerda: $t_1: n_1 - 1$ erkinlik darajast jadvaldagi qiymat $t_2: n_2 - 1$ erkinlik darajast jadvaldagi qiymat

3. So'ngra nazariy t qiymati quyidagi formula asosida hisoblab topiladi:

4. **Taqqoslash:** Hisoblab topilgan t qiymati (0,28) nazariy qiymatdan kichik bo'lgani sababli H_0 qabul qilinadi. H_1 inkor qilinadi.

5. **Qaror qabul qilish:** +arilik va keksalik yoshidagi internallik ko'rsatkichlarini o'rtacha qiymatlari orasidagi farq 95%lik ishonch darajasida ahamiyatsizdir ($t_{qG'}$; $r > 0.05$).

Mavzu bo'yicha savollar

1. St'yudent t mezoni qachon qo'llaniladi?

3. Dispersiyalar gomogenligi aniqlanganda ikki tanlamaning o'rtacha qiymatlarini taqqoslash qanday amalga oshiriladi?

4. Tanlama hajmlari bir xil bo'lganda guruhlarining o'rtacha qiymatlarini taqqoslash.

5. Dispersiyalari va tanlama hajmlari turlicha bo'lgan guruhlarining o'rtacha qiymatlarini taqqoslash.

TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Kricheven A.N, SHikin ye.V, D'yachkov A.G. Matematika dlya psixologov. M. 2003 g.
2. Sidorenko ye.N Metodi matematicheskoy obrabotki v psixologii. Rech', SPb, 2000 g.
3. Nishonova Z.T, Qarshiyeva D.S. "Eksperimental psixologiya" T:2007.

4. Nasledov A.D. Matematicheskiye metodi psixologicheskogo issledovaniya. Analiz i interpretatsiya dannix. SPb., Rech', 2004.
5. Borovikov V. Statistika. Iskustvo analiza dannix na komp'yutere. SPb., 2003.
6. Suxodolskiy G.V. Matematicheskiye metodi psixologii. SPb., 2003.
7. Ermolayev O.YU. Matematicheskaya statistika dlya psixologov. M., 2003.

9- seminar mavzusi.. O'zaro bog'liq bo'lmagan ikki tanlama uchun Mann-Uitni U mezonini

Reja:

1. O'zaro bog'liq bo'lmagan tanlamalar uchun Mann-Uitni U mezonini.
2. Mann-Uitni U mezonini qo'llash sohasi.
3. Mann-Uitni U mezonini hisoblash jarayoni va formulasi.
4. Mann-Uitni U mezonini bo'yicha xulosa chiqarish qoidasi.

Tayanch so'zlar: tanlanma, Mann-Uitni mezonini, tadqiqot, noparametrik mezon, formula

Mann-Uitnining U-testi ikki xil ko'rsatkichlarni aniqlash imkonini beradi. Ularning har biri ma'lum bir sharoitlarni talablarini qoniqtirish uchun mo'ljallangan, ular bir statistik o'sishni (populyatsiyani) o'rganadilar.

Mann Uitni testi uchun quydagi asosda tanlanmalar qabul qilinadi Bu test quyidagi sharoitlarda ishlatilishi mumkin:

1. Berilgan ko'rsatkichlar tartib shkalasida eng kami 1 soni bilan qayd qilingan bo'lsa.
2. Ikki mustaqil tanlamaning ma'lumotlari tahlil qilinadi (bunda tanlamaning miqdori bir xil bo'lishi talab qilinmaydi).

Mann Uitni testini ishlash uchun misol.

Ingliz tilini o'rgatish bo'yicha yangi metodika ishlab chiqilgan uning samaradorligini o'rganish maqsadida boshqa usulga solishtirilgan. Tasodifiy tanlangan maktab o'quvchilarni tasodifiy ravishda ikki guruhga ajratilgan. Birinchi guruh o'quvchilari an'anaviy tarzda til o'rganishgan (1-shart), ikkinchi guruhga o'yinli va rolli mashg'ulotlar qo'llanilgan (2-shart).

CHorakning oxirida yakuniy nazorat o'tkazildi. Hamma vazifani maksimal darajada bajarish balli 30 ga teng.

Medianalar orasidagi ikki tamonlama farqlar mavjudmi degan gipoteza ilgari surilgan. Ikkala guruhda ham 0 faraz mavjud ular farq mavjudligini inkor qilishadi. Berilganlar faqat tartib shkalasida bo'lganligi sababli Mann-Uitni mezonini tanlab olindi $b = 0,05$ ishonchlilik darajasi tanlab olindi, buni inkor qilish ham ikki tamonlama xarakterga ega.

Mann-Uitni mezonini ishlash tartibi

U- Mann Uitni mezoni ikki tanlamani solishtirishga mo'ljallangan mezonlardan hisoblanadi. Agar ular bir biriga qanchalik yaqin bo'lishsa, ularda shunchalik bir xil populyatsiyaga mansub bo'lish ehtimoli kuchlidir va aksincha.

U –testini ishlatish ikki ko'rsatkichni birlashtirishdan brshlanadi {x} va {y}. So'ngra bilashtirilgan ko'rsatkichlar ranjirovka qilinadi. Minimal ko'rsatkichga eng kichik rang, maksimal ko'rsatkichga eng katta rang beriladi.

Har bir ranglar to'plami alohida summa qilinadi. Olingan yig'indilar solishtiriladi. YUqori ko'rsatkichlar yuqori yig'indiga ega bo'ladi.

Tanlama 1	Tanlama 2	Tanlama rangi 1	Tanlama rangi 2
17	15	8	5,5
19	18	11	9
11	19	2,5	11
21	19	13,5	11
10	21	1	13,5
16	22	7	15
24	23	17,5	16
15	24	5,5	17,5
11	26	2,5	19
13	27	4	20
157	214	72,5	137,5

Ikki ko'rsatkichlar orasidagi o'xshashlik U deb nomlanadi va quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$U = \frac{(n_x - n_y) \sqrt{n_x(n_x - 1)}}{2} - R_x, \quad (1)$$

bu yerda n_x n_y har bir tanlamadagi kuzatishlar soni n_x –tanlamadagi katta oanglarning summasi; R_x ikki rangning kattasini summasi

$$U = \frac{(n_x - n_y) \sqrt{n_x(n_x - 1)}}{2} - R_x = \frac{(10 - 10) \sqrt{10}}{2} - (10 - 1) = 137,5 - 100 = 55 - 137,5 = 17,5$$

U hamma tanlamalarning ko'rsatkichlari uchun hisoblanishi mumkin. Qanchalik kichik farq mavjud bo'lsa, ikki tanlama orasida shunchalik kam o'xshashlik mavjud. Eng oxirgi vaziyatda ya'ni bir tanlamaning ko'rsatkichlari ikkinchi tanlamaning ko'rsatkichldaridan katta

bo'lsa, u holda quydagicha bo'ladi $U = 0$. U ning kritik ko'rsatkichi hamma darajada ma'lumdir. Bu ko'rsatkich 20 tadan kam bo'lmagan tanlamalar uchun muhimdir va ular Mann Uitni mezonini jadvalida keltirilgan.

Agar Mann Uitni mezonini kritik ko'rsatkichdan kichik bo'lsa, demak ikki tanlama o'rtasida ishonchli farqlar mavjudligidan dalolat beradi, ya'ni 0 gipotezani inkor qiladi.

Agar hisoblab topilgan Uitni mezonini jadvaldagi ko'rsatkichdan katta bo'lsa, unda ular o'rtasida ishonchli farqlar mavjud emasligini ko'rsatadi.

Demak $b=0.05$ ishonch darajasida Uitni jadvalidan n_1 va n_2 ni kesishgan nuqtasini topamiz 10 va 10. Uitni mezonini katta ko'rsatkichini yuqoridan pastga qarab ko'ramiz, kichik ko'rsatkichini esa chapdan o'nga qarab ko'ramiz $U=23$.

Taqqoslash: agar hisoblab topilgan U jadvaldan topilgan U dan katta bo'lsa 0 gipotezasi qo'llaniladi. Aksincha bo'lsa esa inkor qilinadi. Bizning misolda hisoblab topilgan U jadvaldan topilgan U kichik bo'lganligi sababli ($17.5 < 23$) biz N_1 gipotezasini qabul qilamiz, bunga ko'ra ikki medianalar orasida ishonchli farqlar mavjuddir.

Qaror: ikki ko'rsatkichlar 95% li ishonch darajasida ishonchli ehtimollar darajasida farqlar mavjudligini ko'rsatdi, demak ikki xil ingliz tilini o'qitish usuli bir xil deb hisoblanmaydi, ular o'rtasida katta farq mavjud ekan.

Agar bitta tanlamaning ham ko'rsatkichlari 20 dan katta bo'lsa ham U normal taksimlanishi o'rtacha $n_x n_y / 2$ va dispersiyalar $n_x n_y (n_x + n_y + 1) / 12$ ga teng bo'lsa, u holda quyidagi z formulasiga U ni solamiz va u quyigacha ko'rinishga ega bo'ladi:

$$Z = \frac{U - \frac{n_x n_y}{2}}{\sqrt{\frac{n_x n_y (n_x + n_y + 1)}{12}}} = \frac{17,5 - 100/2}{\sqrt{\frac{21 \cdot 100}{12}}} = \frac{-32,5}{\sqrt{175}} = \frac{-32,5}{13,23} \approx -2,46.$$

Z jadvallar ehtimolidan z ko'rsatkichini topamiz (-2,46): 0,4931.

Bu sondan 0,5 ni ayiramiz va 2 ga ko'paytiramiz ($0,5 - 0,4931$) $\times 2 = 0,0138$.

Hisoblab topilgan son (0,0138) Uitni mezonini uchun r qiymati hisoblanadi (17,5).

r - ko'rsatkich tanlangan ishonch darajasidan ($b=0.05$) kichik bo'lganligi sababli al'ternativ gipotezani qabul qilamiz, unga ko'ra medianalar orasida ishonchli farqlar mavjud.

Qaror: berilgan ikki ko'rsatkich 95% li ishonch darajasida farqlanadi. Demak ikki usul bir xilda samarali hisoblanmaydi.

($U=17.5$, $p>0.05$).

Mavzu bo'yicha savollar

1. Mann-Uitni U mezonini kim birinchi bo'lib qo'llagan?
2. Mann-Uitni U mezonini qaychi sohalarida qo'llash mumkin?
3. Mann-Uitni U mezonini hisoblash a formulasi qanday?
4. Mann-Uitni U mezonini bo'yicha qanday xulosa chiqariladi?
5. Mann-Uitni U mezonining Vilkokson mezonidan farqli jihati nimada?

TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Kricheven A.N, SHikin ye.V, D'yachkov A.G. Matematika dlya psixologov. M. 2003 g.
2. Sidorenko ye.N Metodi matematicheskoy obrabotki v psixologii. Rech', SPb, 2000 g.
3. Nishonova Z.T, Qarshiyeva D.S. "Eksperimental psixologiya" T:2007.
4. Nasledov A.D. Matematicheskiye metodi psixologicheskogo issledovaniya. Analiz i interpretatsiya dannix. SPb., Rech', 2004.
5. Borovikov V. Statistika. Iskustvo analiza dannix na komp'yutere. SPb., 2003.
6. Suxodolskiy G.V. Matematicheskiye metodi psixologii. SPb., 2003.
7. Ermolayev O.YU. Matematicheskaya statistika dlya psixologov. M., 2003.

10- mavzu. Takroriy o'lchovlarda ikki tanlanmani taqqoslash mezonlari

Reja:

1. Takroriy o'lchovlar uchun Styudent t mezonini hisoblash.
2. Juft o'zgaruvchilarni Vilkokson mezonini yordamida o'zaro taqqoslash.
3. Noparametrik takroriy o'lchovlarni o'zaro taqqoslash uchun ishoratlar G mezonini.

Tayanch so'zlar: o'lchov, normal taqsimlanish, Vilkokson mezonini, Styudent t mezonini, o'zgaruvchi

YUqorida aytilganlarni xulosalab aytish mumkinki, o'zaro bog'liq bo'lmagan guruhlarda Styudent t -mezonining quyidagi uch xil turi birdek muvaffaqiyatli ravishda ishlatilishi mumkin:

Dispersiyalar gomogen deb topilganda.

Dispersiyalar har xil, ammo tanlama xajmlari bir xil bo'lgan taqdirda.

Dispersiyalar va tanlama xajmlari turlicha bo'lgan taqdirda.

Dispersiyalar gamogenligi aniqlanganda ikki tanlamaning o'rtacha qiymatlarini taqqoslash $\mu_1 - \mu_2$ Misol:

Mexanika metematika fakul'tetining 61 nafar talabasi hamda geologiya fakul'tetining 63 nafar talabasi Ayzenk so'rovnomasi savollariga javob berdilar ekstroversiya introversiya ko'rsatkichi bo'yicha umumlashtirilgan ma'lumotlar quyidagi jadvalda keltirilgan:

	Мехма $t(X_1)$	Геологи $t(X_2)$	
Ўртача қиймат	11,28	14,38	
Стандарт оғиш	2,06	2,22	
Дисперсия	4,24	4,95	$F_{k1.43}$
N	61	63	$p > 0.05$

Dispersiyalar gamogen deb topildi. Endi ikkita faraz ilgani suriladi:

$N_0 : \mu_1 - \mu_2 = 0$ Matematik va geologlarning ekstroverziya va introverziya ko'rsatkichlari o'rtacha qiymatoari orasidagi farq ahamiyatsiz.

$N_1 : \mu_1 - \mu_2 \neq 0$ Matematik va geologlarning ekstroverziya, introverziya ko'rsatkichlari o'rtacha qiymatlari orasidagi farq statistik jihatdan ahamiyatli

Ishlatiladigan ko'rsatkichlar uchun erkinlik darajasi aniqlanadi

$$Df = n_1 + n_2 - 2 = 61 + 63 - 2 = 122$$

Jadvaldan kritik ko'rsatkich topiladi. Bunda $\alpha = 0,05$ ishonch darajasida, erkinlik darajasi $df = 122$ ga teng, bu ko'rsatkich jadvalda $t_T = 1,98$ ga teng.

Taqqoslash: Hisoblab topilgan t-qiymat jadvaldan topilgan (t_j) qiymatidan kichik bo'lsa N_0 faraz qabul qilinadi, aks holda inkor etilib, N_1 farazi qabul qilinadi. $t > t_j$, ya'ni $8,05 > 1,98$ bo'lgani uchun N_0 ni inkor etib N_1 ni qabul qilamiz, ya'ni geolog va matematik talabarlari o'rtasidagi ekstraversiya va introverziya ko'rsatkichlari orasida statistik jihatdan ishonchli farq mavjud.

Qaror qabul qilish: mexanika matematika va geologiya fakul'teti talabalarining ekstraversiya va introverziya ko'rsatkichlari o'rtacha qiymatlari orasidagi farq 95%lik ishonch darajasida statistik jihatdan ahamiyatlidir ($t = G'$; $r < 0,05$).

Dispersiyalar har xil, ammo tanlama xajmlari bir xil bo'lganda guruhlarining o'rtacha qiymatlarini taqqoslash Misol:

Ushbu tadqiqot gerantopsixologiya yo'nalishida amalga oshirilgan bo'lib, qariyalar uyi va o'z oilalarida istiqomat qiluvchi qariyalar bilan sub'yektiv nazorat testi o'tkazilgan. Asosiy natijalar quyidagi jadvalda keltirilgan:

	Tanlama 1 Qariyalar uyida istiqomat qiluvchilar (X_1)	Tanlama 2 O'z uyida istiqomat qiluvchilar (X_2)
O'rtacha qiymat	11,97	11,13
Standart og'ish	2,30	3,41
Dispersiya	5,27	11,64
N	30	30

Dispersiyalar 95% ishonch darajasida gamogen emas deb topildi ($F = 2.21$, $p < 0.05$). Ikkita faraz ilgari surildi:

$N_0 : \mu_1 - \mu_2 = 0$ Qariyalar uyida va oilada istiqomat qiluvchi qariyalarning internallik ko'rsatkichlari o'rtacha arifmetik qiymatlari bo'yicha orasidagi farq ahamiyatsiz.

$N_1 : \mu_1 - \mu_2 \neq 0$ +ariyalar uyida va oilada istiqomat qiluvchi qariyalarning internallik ko'rsatkichlari o'rtacha qiymatlari orasidagi farq ahamiyatli.

Styudent t-mezonini quyidagi formula asosida hisoblanadi:

Erkinlik darajasi topiladi

$$Df = n - 1 = 30 - 1 = 29$$

95% lik ishonch darajasida jadvaldan kritik ko'rsatkich topiladi, $\alpha=0,05$, $df=29$, kritik qiymat $t_j=2,04$.

Taqqoslash: Hisoblab topilgan t qiymati (1,11) jadvaldan topilgan t qiymatidan kichik bo'lgani sababli N_0 faraz qabul qilinadi, N_1 faraz inkor etiladi.

Qaror qabul qilish: +ariyalar uyida va o'z oilalarida istiqomat qiluvchi qariyalarning internallik ko'rsatkichlari bo'yicha o'rtacha qiymatlar orasidagi farq 95%lik ishonch darajasida statistik jihatdan ahamiyatsizdir ($t < t_j$; $r > 0,05$).

Dispersiyalari va tanlama xajmlari turlicha bo'lgan guruhlarining o'rtacha qiymatlarini taqqoslash Misol:

Qarilik davri va keksalik yoshidagi shaxslarda internallik ko'rsatkichlari orasida farqni aniqlash. Asosiy birlamchi ma'lumotlar quyidagi jadvalda keltirilgan:

	Qarilik yoshi (X_1)	Keksalik yoshi (X_2)
O'rtacha	11,76	11,49
Standart og'ish	4,65	3,69
Dispersiya	21,58	13,64
N	37	43

O'rganilayotgan ma'lumotlarning dispersiyalari gomogen emas deb topildi ($F_{q1.58}$, $p < 0,05$).

Ikkita faraz ilgani surildi:

N_0 : $\mu_1 = \mu_2$ q 0 Ikkala tanlama o'rtacha qiymatlari orasidagi farq ahamiyatsiz.

N_1 : $\mu_1 = \mu_2 \neq 0$ Ikkala tanlama o'rtacha qiymatlari orasidagi farq ahamiyatli.

Statistik gipotezani tekshirish usuli.

Styudent mezonini quyidagi formula asosida hisoblab topildi:

Guruhlarining tanlama xajmlari turlicha bo'lganligi sababli ($n_1 n_2 \neq 0$) ikkala guruh erkinlik darajasi (df_{q36} va df_{q42}) uchun t qiymatlari $t_{1q2.02}$ va $t_{2q2.02}$ aniqlanadi: $\alpha=0,05$ Bu yerda: t_1 : n_1-1 erkinlik darajast jadvaldagi qiymat t_2 : n_2-1 erkinlik darajast jadvaldagi qiymat

So'ngra nazariy t qiymati quyidagi formula asosida hisoblab topiladi:

Taqqoslash: Hisoblab topilgan t qiymati (0,28) nazariy qiymatdan kichik bo'lgani sababli N_0 qabul qilinadi. N_1 inkor qilinadi.

Qaror qabul qilish: Qarilik va keksalik yoshidagi internallik ko'rsatkichlarini o'rtacha qiymatlari orasidagi farq 95%lik ishonch darajasida ahamiyatsizdir ($t = G$; $r > 0,05$).

Mavzu bo'yicha savollar

1. Takroriy o'lchovlar uchun Styudent t mezonini hisoblash qanday amalga oshiriladi?
2. O'zgaruvchilarni o'zaro taqqoslashda qaysi mezonlardan foydalanish mumkin?
3. Ishoralar G mezonining o'ziga xos jihati qayerda?

4. Noparametrik takroriy o'lchovlarni o'zaro taqqoslash uchun qaysi mezonlardan foydalaniladi?

5. Natijalarni ranjirlash qanday amalga oshiriladi?

TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Kricheven A.N, SHikin ye.V, D'yachkov A.G. Matematika dlya psixologov. M. 2003 g.
2. Sidorenko ye.N Metodi matematicheskoy obrabotki v psixologii. Rech', SPb, 2000 g.
3. Nishonova Z.T, Qarshiyeva D.S. "Eksperimental psixologiya" T:2007.
4. Nasledov A.D. Matematicheskiye metodi psixologicheskogo issledovaniya. Analiz i interpretatsiya dannix. SPb., Rech', 2004.
5. Suxodolskiy G.V. Matematicheskiye metodi psixologii. SPb., 2003.
6. Ermolayev O.YU. Matematicheskaya statistika dlya psixologov. M., 2003.

11- mavzusi.. Noparametrik ma'lumotlar uchun χ^2 assotsiativ mezon

Reja:

1. χ^2 (xi-kvadrat) noparametrik mezonini qo'llash shart-sharoitlari.
2. χ^2 (Xi-kvadrat) noparametrik mezonining turlari.
3. χ^2 noparametrik mezonini hisoblash jarayoni va formulasi.
4. χ^2 noparametrik mezon bo'yicha xulosa chiqarish qoidalari.

Tayanch so'zlar: *normal taqsimlanish, moda, mediana, o'rtacha, dispersiya, standart og'ish, variativlik koeffitsenti*

Tadqiqotlarning aksariyati sinaluvchilarni turli mashg'ulotlar davomida bir necha marta tekshirishga asoslangan bo'ladi. YA'ni ayni bir sinaluvchilar guruhi bilan turli shart-sharoitlarda qayta-qayta sinovlardan o'tkazilib, ularning u yoki bu xususiyatlari o'rganilishi mumkin. odatda bunday paytlarda mazkur mashg'ulotlar yoki shartsharoitlarda olingan ma'lumotlarning o'rtacha arifmetik qiymatlari solishtiriladi.

χ^2 –mezonni noparametrik statistik usuli bo'lib, bir tanlamaga oid vazifalarni amalga oshirishda (empirik va nazariy taqsimlanishlarning mosligini aniqlash) hamda ikki tanlama orasidagi bog'liqlikni aniqlashga doir vazifalarni bajarishda foydalaniladi.

84 kishilik talabalar guruhida ego holati tiplarining (E. Bernning transaksion tahlili bo'yicha) nizoli vaziyatlarda xulq-atvor uslubiga (Tomas metodikasi bo'yicha) ko'rsatgan ta'siri tadqiq etilgan.

Xullas bir so'rovnoma orqali har bir sinaluvchida "Bola", "Katta odam", "Ota-ona" ego holati tiplaridan birining ustunligi aniqlangan.

So'ngra boshqa bir so'rovnoma yordamida ushbu sinaluvchilar nizoli vaziyatlarda qanday tipdagi xulq-atvorni namoyon qilishlari (hamkorlik qiluvchi, raqobatchilik) aniqlangan.

84 nafar talabada o'tkazilgan tadqiqot natijalari asosida ajratilgan guruhlar chastotali tahlili amalga oshirilib eng kamida ikki satr va ikkiki ustunga ega bo'lgan jadval shaklida umumlashtiriladi:

CHastotalar jadvali

Xulq atvor uslubi	Ego holati tiplari			
	Yoshbola	Katta odam	Ota-ona	jami
Hamkorlik qiluvchi	7	21	4	32
Raqobatchilik	15	9	28	52
Jami	22	30	32	84

χ^2 mezon yordamida nizoli vaziflardagi xulq-utvor uslubining ego holati tiplariga bog'liqligini aniqlash va 95% lik ishonch darajasida bu borada qaror qabul qilish lozim.

Jadvaldagi ma'lumotlarga qaraganda "Katta odamlar" ko'proq "hamkorlik qiluvchi" xulq-atvor tipini namoyon qilishga moyil bo'lganlar. "YOsh bola", va ayniqsa "Ota-ona" ego holatini namoyon qilganlar orasida esa bunday xulq-atvorni uslubiga ega bo'lish holatlari kamroq uchraydi.

SHu bilan birga, "Ota-ona" ego holatini namoyon qilganlar orasida "raqobatchilik" xulq-atvorini gamoyon qilish holati ko'pchilikni tashkil etgan "YOsh bola" va ayniqsa "Katta odam" ego holatiga mansub kimsalarda "Raqobatchilik"ka moyillik xos emas.

Biroq ushbu qonuniyatni 95%lik ishonch darajasida e'tirof etish imkoniyatini χ^2 mezon yordamida aniqlash zarur.

N_0 : Tanlamalar orasida ishonch darajasidagi farq mavjud emas (ya'ni ego holat tiplari va xulq atvor uslublari orasida bog'liqlik mavjud emas.

N_1 : Farq mavjud, ya'ni xulq atvor uslubi shaxsning ustvor ego holati tiplariga bog'liq bo'ladi.

$b = 0,05$.

χ^2 mezonini hisoblash formulasi

$$\chi^2_{i,j} = \frac{2 \sum (N_{ij} - O_{ij})^2}{O_{ij}} \quad (1)$$

N – empirik chastota

O – nazariy chastota

χ^2 – mezonini qulayroq usulda hisoblash uchun quyidagi jadvalni tuzish lozim:

Empirik chastota (N)	Nazariy chastota (O)	$N-O$	$(N-O)^2$	$(N-O)^2/O$
----------------------	----------------------	-------	-----------	-------------

7	8,38	-1,38	1,91	0,23
21	11,43	9,57	91,61	8,02
4	12,19	-8,19	67,08	5,50
15	13,62	1,38	1,91	0,14
9	18,57	-9,57	91,61	4,93
28	19,81	8,19	67,08	3,39
84	84		$\chi^2=$	22,21

Umumlashtirilgan jadvalning har bir katagidagi empirik chastotalar ustuniga erkin tartibda kiritiladi.

So'ngra nazariy chastota ustuniga har katakdagi empirik chastotalar uchun nazariy chastotalar quyidagi formula asosida hisoblab chiqiladi

$$n \quad m$$

$$N_{ij} = \frac{N_{i.} \cdot N_{.j}}{N} \quad (2)$$

i – tegishli katak joylashgan satrning tartib raqami; j – tegishli katak joylashgan ustunning tartib raqami;

N – tanlanmaning umumiy xajmi

N_{ij} – i satri va j ustunida joylashgan katakdagi empirik chastota uchun hisoblab topilgan nazariy chastota.

Soddaroq qilib aytilsa j ustuni va i satrida joylashgan katak nazariy chastotasini hisoblash uchun j ustuni va i satrining yig'indilarining o'zaro ko'paytirish va tanlamaning umumiy xajmiga bo'lish kerak. Olingan natijalarni (O) ustunining tegishli katagiga yozib chiqish kerak.

Keyingi ustunlarda ham χ^2 mezonini hisoblash uchun tegishli amallar bajarilib, χ^2 hisoblab topiladi (22,21).

Jadvaldagi χ^2 qiymatini hisoblash.

$$df = (s\text{atrlar soni} - 1) \cdot (ustunlar soni - 1) = (m - 1) \cdot (n - 1) = (2-1) \cdot (3-1) = 2$$

Tanlab olingan b ishonchlilik darajasida va 2 ta erkinlik darajasida jadvaldagi χ^2 qiymati (5,99).

Taqqoslash:

Agar hisoblab topilgan χ^2 mezonini jadvaldan topilgan kritik χ^2 qiymatidan katta bo'lsa, N_0 inkor etilib, N_1 qabul qilinadi. aks holda N_0 qabul qilinadi. hisoblab topilgan χ^2 (22,21) jadvaldan topilgan χ^2 (5,99) qiymatidan katta bo'lganligi uchun N_1 farazini qabul qilamiz va ko'rsatkichlar orasida bog'liqlik mavjud deb qabul qilamiz.

Mavzu bo'yicha savollar

1. Xi-kvadrat noparametrik mezonini qo'llash shart-sharoitlari qanday?
2. Xi-kvadrat noparametrik mezonining qanday turlari mavjud?
3. Xi-kvadrat noparametrik mezonini hisoblash formulasi qanday?
4. Xi-kvadrat noparametrik mezonini bo'yicha qanday xulosa chiqarish mumkin?

TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Kricheven A.N, SHikin ye.V, D'yachkov A.G. Matematika dlya psixologov. M. 2003 g.
2. Sidorenko ye.N Metodi matematicheskoy obrabotki v psixologii. Rech', SPb, 2000 g.
3. Nishonova Z.T, Qarshiyeva D.S. "Eksperimental psixologiya" T:2007.
4. Nasledov A.D. Matematicheskiye metodi psixologicheskogo issledovaniya. Analiz i interpretatsiya dannix. SPb., Rech', 2004.
5. Borovikov V. Statistika. Iskustvo analiza dannix na komp'yutere. SPb., 2003.
6. Suxodolskiy G.V. Matematicheskiye metodi psixologii. SPb., 2003.
7. Ermolayev O.YU. Matematicheskaya statistika dlya psixologov. M., 2003.

12- mavzusi.. Bir omilli dispersion tahlil mezonini

Reja:

1. Bir omilli dispersion tahlil mezonidan foydalanish tamoyillari.
2. Bir omilli dispersion tahlil mezonini hisoblash jarayoni va formulasi.
3. Bir omilli dispersion tahlil mezonini bo'yicha xulosa chiqarish qoidalari.

Tayanch so'zlar: taqsimot qatori, dispersion tahlil, moda, mediana, o'rtacha, dispersiya, standart og'ish

Tadqiq etilayotgan taqsimot qatori elementlari asosida aniqlanadigan son variatsiyaning ushbu o'lchami vazifasini o'taydi. Mazkur sonni topsak, u muayyan taqsimot qatori elementlari tarqoqligi darajasini ko'rsatadi. Ushbu o'lcham ma'lum bir talablarga javob berishi joiz. SHuning uchun ham uni topishdan avval, biz mazkur talablar nimadan iborat ekanini aniqlab olishimiz darkor. Biz buni amalga oshirib bo'lganimizdan keyin u bizlarga ushbu qiymatni qanday topishimiz mumkinligini ko'rsatadi.

Agar u elementlari bir-biridan unchalar ham katta tafovutga ega bo'lmagan sonlardan iborat taqsimot qatori asosida hisoblab chiqilayotgan bo'lsa, ushbu qiymat ko'rsatkichi kichkina bo'lishi kerakligi birinchi xossa mohiyatidir.

Ikkinchi xossa - ushbu qiymat taqsimot qatori elementlari soniga bog'liq bo'lmashligidan iborat. Yanada aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, taqsimot qatori elementlarining soni ko'payishi tufayli oshadigan o'lcham ko'rsatkichi bizga kerak emas. Bizning ko'rsatkichimiz sonlarning miqdoriga bog'liq bo'lmagan holda ularning o'rtalaridagi tafovut va monandlikni aks ettirishi lozim. Taqsimot qatori minglab elementlardan tashkil topgan bo'lsa-da, agar ular bir-biriga yaqin bo'lsa, bizning ko'rsatkichimiz nisbatan kichik qiymatga ega bo'lishi shart.

Uchinchi xossa - bizning ko'rsatkichimiz o'rtacha qiymatga tobe bo'lmashligi kerakligidan iborat. Bizga faqatgina elementlar o'rtasidagi tarqoqlik darajasini bilish kifoya. Bundan oldingi bo'limda B taqsimot qatori variatsiyasi katta bo'lsada A va B taqsimot qatorlarining o'rtacha qiymatlari bir hil ekanini aniqlagan edik. Biz ma'lum bir taqsimot qatorining o'rtacha qiymati millionga teng ekanini bilganimiz bilan ushbu rasmda o'z ifodasini topgan taqsimot qatorining toshlari joylashuvi xususida biron bir aniq fikrni aytolmagan bo'lardik. O'rtacha ko'rsatkich elementlar variatsiyasi bilan bog'liq emas ekan uning qiymati bizning o'lchamimizga ta'sir etmasligi kerak.

SHu bilan biz agar taqsimot qatori elementlari o'rtacha ko'rsatkichga yaqin joylashgan bo'lsa, demak ushbu taqsimot qatori variatsiyasi kichik, agar tarqoqlik katta bo'lsa variatsiya ham katta bo'ladi degan muhim xulosaga keldik. Demak, bizlar qidirayotgan variatsiya o'lchami taqsimot qatori elementlarining o'rtachagacha bo'lgan oraliq masofa qanchaligini aks ettirishi kerakligini aniqladik. SHu joyda, biz o'rtacha qiymat qancha ekanini inobatga olmayotganimizni, balki taqsimot qatorining har bir elementi undan qanchalar olis yoki yaqin ekanini bildiruvchi masofalar yig'indisiningina ko'zdan kechirishimiz kerakligini alohida ta'kidlab o'tishimiz lozim.

Endi 2 bo'limda misol qilib keltirilgan besh elementdan iborat taqsimot qatorini tahlil qilsak. Ushbu dastakda joy olgan toshlarning o'rtachagacha bo'lgan oraliq masofasi quyidagi rasmda ko'rsatilgan (o'rtacha qiymatdan chaproqda joylashgan toshlar masofasi manfiy belgili bo'ladi):

Avvaliga variatsiya ko'rsatkichi sifatida foydalanish uchun barcha oraliq masofalarni qo'shib chiqishga harakat qilib ko'rsak. Biroq, musbat va manfiy sonlar yig'indisi nolga teng bo'lishining guvohi bo'lamiz (ushbu xossa oldingi bo'limda batafsil yoritib berilgan).

Bunday vaziyatdan chiqish uchun biz manfiy belgilarni inkor etishga urinib ko'rsak. SHu yo'sinda barcha oraliq masofalarni qo'shib ularning o'rtacha qiymatini topsak o'rtacha og'ish deb nomlanadigan ko'rsatkichga ega bo'lamiz. Lekin bizlar topishga harakat qilayotgan ko'rsatkich o'rtacha og'ish ko'rsatkichidan ahamiyatliroqdir.

Bizlar manfiy belgilardan ozod bo'lishning boshqa usulidan foydalanamiz, ya'ni nolga teng bo'lmagan har qanday sonning kvadrati musbat son bo'ladi degan qonuniyatdan kelib chiqqan holda ayirmalarning har birini kvadratga oshiramiz (o'zini o'ziga ko'paytiramiz).

Yuqorida keltirilgan taqsimot qatori uchun:

Taqsimot qatorining elementlari bilan o'rtacha ayirmalarining kvadratlarini hisoblash

Birlamchi	o'rtacha	Birlamchi	Ayirmalar
-----------	----------	-----------	-----------

elementlar		elementlar bilan o'rtacha ayirmasi	kvadrati
4	6	-2	4
4	6	-2	4
5	6	-1	1
7	6	1	1
10	6	4	16
Jami			26

Ayirmalar kvadrati ustunidagi manfiy sonlar endi yo'q. 26 teng bo'lgan kvadratlar yig'indisiga variatsiya o'lchami sifatida qarsa bo'ladimi, degan savol tug'iladi. Aslo. Deylik, taqsimot qatori elementlari sonini 5 dan 11 tagacha oshirdik. Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, dastakka yana oltita tosh o'rnatdik. Ushbu yangi oraliq masofalar, o'z navbatida, ularning yig'indisini ham oshishiga turtki bo'ladi. Bu degani, masofalar ko'rsatkichlarining kvadratlari yig'indisida variatsiya darajasi bilan bir qatorda toshlarning, yoki taqsimot qatori elementlarining ham umumiy soni o'z aksini topmoqda. Bizlar esa bizning o'lchamimiz taqsimot qatori elementlari soniga nisbatan sezgir bo'lmasligini istaymiz.

Biroq ayirmalar kvadrati yig'indisini ushbu bizlarga nomaqbul bo'lgan jihatdan oson «tozalab» qo'yishimiz mumkin. Buning uchun olingan yig'indini taqsimot qatori elementlari soniga bo'lishimiz kerak, xolos. Olingan natija biz qidirayotgan variatsiya o'lchamidir. Ushbu ko'rsatkich dispersiya deb ataladi. Demak, bizlar tahlil qilayotgan taqsimot qatori dispersiyasi $26 / 5 = 5,2$ teng bo'ladi.

Dispersiya deb taqsimot qatori elementlari bilan ularning o'rtacha ko'rsatkichi ayirmalari kvadratining o'rtachasiga aytiladi.

Ana endi S- taqsimot qatorining-mi yoki D- taqsimot qatorining variatsiyasi katta ekanini aniqlashimiz mumkin. Ushbu taqsimot qatorlari variatsiyalarining hisob-kitobi quyidagi jadvallarda berilgan:

taqsimot qatori dispersiyasini topish.

elementlar	o'rtacha	ayirma	Ayirma kvadrati
1	8	-7	49
4	8	-4	16
10	8	2	4
11	8	3	9
14	8	6	36
			114

$$\text{Dispersiya} = 114 / 5 = 22,8$$

Taqsimot qatori dispersiyasini topish.

elementlar	o'rtacha	ayirma	Ayirma kvadrati
2	8	-6	36

5	8	-3	9
8	8	0	0
12	8	4	16
13	8	5	25
86			

$$\text{Dispersiya} = 86 / 5 = 17,2$$

S-taqsimot qatori dispersiyasi kattaroq ekani, demakki, uning elementlari variatsiyasi kuchliroq ekani ko'rinib turibdi.

Dispersiyani topishning bundan-da oqilona uslubi ham mavjud (ushbu uslub shu bo'lim oxirrog'ida batafsil yoritiladi). Biroq, biz hozir foydalangan dispersiyani topish usuli ushbu ko'rsatkich mazmunini to'laroq ochib berishi bilan ahamiyatlidir.

Mavzu bo'yicha savollar

1. Bir omilli dispersion tahlil mezonidan foydalanish tamoyillari qanday?
2. Bir omilli dispersion tahlil mezonidan qaysi sohalarda foydalanish mumkin?
3. Bir omilli dispersion tahlil mezoni bo'yicha xulosa qanday chiqariladi?
4. Natijalarni ranjirlash qanday amalga oshiriladi?
5. Mediana deb qaysi elementga aytiladi?

TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Kricheven A.N, SHikin ye.V, D'yachkov A.G. Matematika dlya psixologov. M. 2003 g.
2. Sidorenko ye.N Metodi matematicheskoy obrabotki v psixologii. Rech', SPb, 2000 g.
3. Nishonova Z.T, Qarshiyeva D.S. "Eksperimental psixologiya" T:2007.
4. Nasledov A.D. Matematicheskiye metodi psixologicheskogo issledovaniya. Analiz i interpretatsiya dannix. SPb., Rech', 2004.
5. Borovikov V. Statistika. Iskustvo analiza dannix na komp'yutere. SPb., 2003.
6. Suxodolskiy G.V. Matematicheskiye metodi psixologii. SPb., 2003.
7. Ermolayev O.YU. Matematicheskaya statistika dlya psixologov. M., 2003.

13- mavzusi.. Kruskal –Uollis mezoni

Reja:

1. Bir nechta bog'liq bo'lmagan tanlamalarni o'zaro taqqoslashning parametrik va noparametrik mezonlari.

2. Kruskal-Uollis mezonidan foydalanish tamoyillari.
3. Kruskal-Uollis mezonini hisoblash jarayoni va formulasi.
4. Kruskal-Uollis mezon bo'yicha xulosa chiqarish qoidalari.

Tayanch so'zlar: normal taqsimlanish, moda, mediana, o'rtacha, dispersiya, standart og'ish, variativlik koeffitsienti

Tanlamadagi ma'lumotlarning normal taqsimlanganligidan guvohlik beruvchi ko'rsatkichlar quyidagilardir:

- tanlamaning simmetrik taqsimlanganligi (gistogramma yoki boksploot usulida ko'rgazmali tarzda ifodalash mumkin).

- Medianna va o'rtacha qiymat bir biriga teng yoki juda yaqin.

- Assimetriya va eksess ko'rsatkichlari nolga yaqin qiymatga ega.

Boksploot usulida ma'lumotlarni taqdim etishda medianna, kvartillar orasidagi masofa hamda taqsimlanish limiti ko'rgazmali tarzda aks ettiriladi.

Boksplootlarni tuzishda quyidagilarga e'tiborni qaratish lozim:

3. Quyi va yuqori kvartillarni qiymatlarini aniqlash. Q_1 ; Q_3

4. Kvartillar orasidagi masofani aniqlash $\Delta Q = Q_3 - Q_1$

5. Haddan yuqori va haddan past bo'lgan qiymatlarni topish.

Yuqori sakrovchilar-bular $Q_3 + 1,5\Delta Q$ dan to $Q_3 + 3\Delta Q$ diapazonda yotuvchi tanlamalardir.

Pastki sakrovchilar-bular $Q_1 - 3\Delta Q$ dan to $Q_1 - 1,5\Delta Q$ gacha diapazonda yotuvchi tanlamalar hisoblanadi.

6. Ekstremal qiymatlarni aniqlash.

Yuqori ekstremal qiymatlar bular $Q_3 + 3\Delta Q$ dan katta bo'lgan ko'rsatkichlar hisoblanadi.

Quyi ekstremal qiymatlar bular $Q_1 - 3\Delta Q$ dan past bo'lgan ko'rsatkichlar olinadi.

7. Maksimal va minimal to'g'ri tuzatilgan qiymatlarni aniqlash.

To'g'ri tuzatilgan maksimal ko'rsatkichlar bu yuqori sakrovchi ham, yuqori ekstremal ham bo'lmagan eng katta sonidir.

To'g'ri tuzatilgan minimal ko'rsatkichlar bu pastki sakrovchi ham, quyi ekstremal ham bo'lmagan eng kichik sonlardir.

6. Ordinats o'qlari bo'yicha mediananing ko'rsatkichlarini, yuqori va quyi kvartillarni, ekstremal ko'rsatkichlarni, to'g'ri tuzatilgan maksimal va minimal ko'rsatkichlarni joylashtiramiz.

Gorizontal chiziqlar bo'yicha kesmalarni bir birining tagiga joylashtiramiz.

Kesmalar yuqori va quyi kvartillarga mos keladi, ular to'g'ri to'rtburchak shakliga keladi. Bu to'g'ri to'rtburchakda kesma va mediana ham mavjud.

Maksimum ko'rsatkichlarga mos keladigan ko'rsatkichlar yuqori kvartillar bilan o'rta perpendikulyar orqali birlashtiriladi.

Quyi ko'rsatkichlar esa quyi kvartillar bilan birlashtiriladi.

Sakrovchilar (O) va ekstremal ko'rsatkichlar esa (E) bilan

belgilanadi

YUqorida keltirilgan holatlardan quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. Ko'pgina hollarda psixologik tadqiqotlar normal taqsimlanishga yaqin ko'rsatkichlarga ega bo'lishi mumkin.

2. Normal taqsimlanish ko'pgina hollarda to'liq simmetrik bo'lmaydi (o'ng tamonlama yoki chap tomonlama assimetriya bo'lishi mumkin).

Misol tariqasida mashhurlikni aniqlash savolnomasi bo'yicha olingan ma'lumotlarning chastotali tahlilini keltirish mumkin.

Razryadlarn ing nomer	Sinflar orasidagi intervalla	Testdan o'tganlarning soni
1	2,5 - 2,9	2
2	3 - 3,4	0
3	3,5 - 3,9	2
4	4 - 4,4	2
5	4,5 - 4,9	3
6	5 - 5,4	3
7	5,5 - 5,9	7
8	6 - 6,4	7
9	6,5 - 6,9	8
10	7 - 7,4	17
11	7,5 - 7,9	22
12	8 - 8,4	17
13	8,5 - 8,9	22
14	9 - 9,4	13
15	9,5 - 9,9	8
16	10 - 10,4	13

CHiziqli grafiklarning afzalligi shundaki, ular istalgan ikkita nuqta orasidagi «egri chiziq ostidagi maydon» to'g'risida fikr yuritishga imkon beradi. Bunda:

maydon q ma'lumotlar soniqma'lumotlar soni (foizi)= ehtimol.

Ushbu malohazalardan quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

4. Psixologik o'lchovlar aksariyat holda qisman normal taqsimlanishga ega bo'ladilar.

5. Normal taqsimlangan ma'lumotlar aksariyat hollarda to'liq simmetrik shaklni hosil qilmaydi (o'ng tamonlama, chap tamonlama assimetriya holatlari kuzatiladi).

6. Amalda ixtiyoriy ravishda tanlangan har qanday maydon yoki taqsimlanishda mavjud bo'lgan ikkita qiymat orasidagi masofani aniqlash mumkin.

2. Standart normal taqsimlanish va Z qiymatlari uchun ehtimollar jadvali.

Endibiz test natijalariga ko'ra 7-9 ballar orasidagi qiymatlarga ega bo'lgan talabalarning necha foizga tengligini hisoblashga urinib ko'rishimiz mumkin.

Agar biz egri chiziq ostidagi barcha maydon yuzasi 1 ga teng deb faraz qilsak, u holda 7 va 9 qiymatlari orasidagi maydon yuzasi 7-9 ballga ega bo'lgan talabalarning foizlaridagi nisbiy qiymatiga tengdir, shu bilan birga bu foiz yangi bir talabaning 7-9 ballar orasidagi bir qiymatga ega bo'lish ehtimolini ham aks ettiradi.

Demak, asosiy masalamiz 7 va 9 ballari orasidagi egri chiziq ostidagi maydonning yuzasini hisoblashdan iborat. Buning ikkita yo'li bor:

- Juda murakkab hisoblashlarni amalga oshirish (ya'ni integralni hisoblash) lozim.
- Har qanday real o'zgaruvchining qiymatlari bilan bog'liq maydonning yuzasini hisoblashga yordam beradigan maxsus jadvaldan foydalanish.

Bunday jadval haqiqatda mavjud bo'lib o'ta murakkab hisobkitoblarni amalga oshirish zaruratini yo'qqa chiqaradi. Bu z qiymatlarining ehtimollari jadvalidir. Biroq bu jadvalning salbiy tomoni shundaki, undan foydalanish uchush:

- Bizning o'zgaruvchimiz normal taqsimlanishga ega deb qabul qilishga majburlamiz.
- Ushbu o'zgaruvchining o'rtacha arifmetik qiymati va standart og'ishidan foydalanib, kerakli qiymatlarni z qiymatlariga aylantirishimiz lozim. Bu yerda gap z harfi bilan nomlanadigan o'rtacha qiymati 0 ga, standart og'ishi esa 1 teng bo'lgan standart normal taqsimlanish haqida borayapti.

□

O'rtachadan (0 dan) z qiymatigacha bo'lgan oraliq	«Egri chiziq ostidagi maydon yuzasi»	Taqsimla nishning kamroq qismi	Taqsimla nishning ko'proq qismi
0,98	0,3365	0,1635	0,8365
0,99	0,3389	0,1611	0,8389
1,00	0,3413	0,1587	0,8413
1,01	0,3438	0,1562	0,8438

Standart normal taqsimlanishning xarakterli xususiyatlaridan biri shundaki barcha qiymatlarning 68 %i o'rtachadan ± 1 standart og'ish oralig'ida yotadi. ± 2 standart og'ishlik oraliqda esa qiymatlarning 95%i mavjud. Boshqacha aytilsa -2 standart og'ishdan kichik va $+2$ standart og'ishdan yuqori qiymatlar 5%ni tashkil etadi.

3. Ma'lumotlarni Z qiymatlariga aylantirish

Har bir alohida olingan taqsimlanish uchun maydon yuzasini ifoda etuvchi qiymatlarni ta'minlaydigan jadvalni ishlab chiqish o'ta mashaqqatli va juda kam samara beradigan hisob-kitoblarni amalga oshirish zaruratini tug'diradi.

SHu sababli standart normal taqsimlanish uchun maxmum jadval ishlab chiqilgan bo'lib, bu jadvaldan foydalanishdan avval har qanday o'rganilayotgan ma'lumotlarni standart normal taqsimlanishga aylantiriladi.

Mavzu bo'yicha savollar

1. Tanlamalarni o'zaro taqqoslashning qanday parametrik va noparametrik mezonlari mavjud?
2. Kruskal-Uollis mezonidan foydalanish tamoyillari qanday?
3. Kruskal-Uollis mezonini hisoblash formulasi qanday?
4. Kruskal-Uollis mezon bo'yicha qanday tarzda xulosa chiqariladi? 5. Kruskal-Uollis mezonining farqli jihatlari nimada?

TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

2. Kricheven A.N, SHikin ye.V, D'yachkov A.G. Matematika dlya psixologov. M. 2003 g.
3. Sidorenko ye.N Metodi matematicheskoy obrabotki v psixologii. Rech', SPb, 2000 g.
4. Nishonova Z.T, Qarshiyeva D.S. "Eksperimental psixologiya" T:2007.
5. Nasledov A.D. Matematicheskiye metodi psixologicheskogo issledovaniya. Analiz i interpretatsiya dannix. SPb., Rech', 2004.
6. Borovikov V. Statistika. Iskustvo analiza dannix na komp'yutere. SPb., 2003.
7. Suxodolskiy G.V. Matematicheskiye metodi psixologii. SPb., 2003.
8. Ermolayev O.YU. Matematicheskaya statistika dlya psixologov. M., 2003.


14- mavzu. Korrelyatsiyaon tahlil mezonlari

Reja:

1. Parametrik va noparametrik ma'lumotlarning korrelyatsion tahlil mezonlari.
2. Pirson korrelyatsiyasini hisoblash jarayoni va formulasi.
3. Pirson korrelyatsiyasi bo'yicha xulosa chiqarish qoidalari.
4. Spirman korrelyatsiyasini hisoblash jarayoni va formulasi.
5. Spirman korrelyatsiyasi bo'yicha xulosa chiqarish qoidalari.

Tayanch so'zlar: Parametrik va noparametrik ma'lumotlar, dispersiya, standart og'ish, korrelyatsiya koeffitsienti

Korrelyatsiya koeffitsiyenti psixologiyada keng ishlatiladigan statistik xarakteristika bo'lib, belgilar orasida to'g'ri chiziqli yoki shu tipga yaqin bo'lgan bog'lanishlarda qo'llaniladi.



Korrelyatsion tahlil yordamida ikki o'zgaruvchi orasidagi bog'liqlikning yo'nalishi va kuchlilikini aniqlash mumkin.

Egri chiziqli bog'lanishlarda esa korrelyatsiya koeffitsiyenti bog'lanish miqdorini kamaytirib ko'rsatishi mumkin yoki uni payqamasligi ham mumkin.

Parametrik va noparametrik o'zgaruvchilar orasidagi korrelyatsion bog'lanishlarni hisoblashda turlicha formulalardan foydalaniladi.

Parametrik ma'lumotlar uchun Pirson korrelyatsiya koeffitsiyenti bilan hisoblansa, noparametrik ma'lumotlar uchun Spirman

korrelyatsiyasi hisoblab topiladi

Korrelyatsiya koeffitsiyenti –ikki o'zgaruvchining qiymatlari orasidagi mavjud bog'liqlikning kuchi va yo'nalishini aniq ko'rsatuvchi matematik –statistik ko'rsatkich bo'lib, «lotincha» «r» harfi bilan belgilanadi.

Pirsonning korrelyatsiya koeffitsiyenti (r) intervallar yoki munosabatlar shkalasida berilgan ikki o'zgaruvchi o'rtasidagi uzviylik kuchini aniqlashda qo'llaniladi.

Deylik, 10 nafar talabalar mantiqiy topshiriqlar va emotsional topshiriqlarni bajarishga qaratilgan testdan o'tdilar. Har bir yo'nalish bo'yicha topshiriqlarni bajarish vaqtlari minutlarda qayd etib boriladi. Korrelyatsion koeffitsiyentni aniqlashda quyidagicha ikkita faraz ilgari suriladi:

N_0 : Mantiqiy va emotsional topshiriqlarni bajarish vaqtlari orasida bog'liqlik mavjud emas ($r=0$)

N_1 : Mantiqiy va emotsional topshiriqlarni bajarish vaqtlari orasida bog'liqlik mavjud ($r \neq 0$)

Korrelyatsiya koeffitsiyentini hisoblash Pirson mezonidan foydalanilgan holda quyidagicha amalga oshiriladi, bunda

1. Ko'rsatkichlarni tayyorlash:

Sinal uvchining raqami	1-o'zgaruvchi (X) mantiqi masalani yechish vaqti	2- o'zgaruvchi (Y) Emotsional vazifani yechish vaqti	$X \cdot Y$	X^2	Y^2
1	16	12	192	256	144

2	16	17	272	256	289
3	12	8	96	144	64
4	19	12	228	361	144
5	7	17	119	49	289
6	14	8	112	196	64
7	24	12	288	576	144
8	3	24	72	9	576
9	21	7	147	441	49
10	13	4	52	169	16
Jami	145	121	1578	2457	1779

Pirson korrelyatsiyasini hisoblash formulasi

$$r = \frac{n \sum X_i Y_i - \sum X_i \sum Y_i}{\sqrt{n \sum X_i^2 - (\sum X_i)^2} \sqrt{n \sum Y_i^2 - (\sum Y_i)^2}}$$

n — kuzatishlar soni

X_i — X o'zgaruvchi uchun ko'rsatkichlar;

Y_i — Y o'zgaruvchi uchun ko'rsatkichlar

2. Formulani suratini hisoblaymiz.

$$r = \frac{n \sum X_i Y_i - \sum X_i \sum Y_i}{\sqrt{n \sum X_i^2 - (\sum X_i)^2} \sqrt{n \sum Y_i^2 - (\sum Y_i)^2}} = \frac{10 \cdot 1578 - 145 \cdot 121}{\sqrt{10 \cdot 2457 - 145^2} \sqrt{10 \cdot 1765 - 121^2}}$$

3. Formulani maxrajini hisoblaymiz. Maxrajni ham ikkiga bo'lib hisoblanadi

Birinchi bosqich:

$$\sqrt{n \sum X_i^2 - (\sum X_i)^2} = \sqrt{10 \cdot 2457 - 145^2} = \sqrt{24570 - 21025} = \sqrt{3545}$$

Ikkinchi boqich:

$$\sum_{i=1}^n Y_i^2 - \frac{(\sum_{i=1}^n Y_i)^2}{n} = 17790 - \frac{14641^2}{3149} = 101779 - 121 = 101658$$

Umumiy xisoblash:

$$\sqrt{\sum_{i=1}^n X_i^2 - \frac{(\sum_{i=1}^n X_i)^2}{n}} = \sqrt{11163205 - \frac{3341,14^2}{3149}} = 3545,3149$$

4. r qiymatin hisoblash

$$r = \frac{\sum_{i=1}^n X_i Y_i - \frac{(\sum_{i=1}^n X_i)(\sum_{i=1}^n Y_i)}{n}}{\sqrt{\sum_{i=1}^n X_i^2 - \frac{(\sum_{i=1}^n X_i)^2}{n}} \sqrt{\sum_{i=1}^n Y_i^2 - \frac{(\sum_{i=1}^n Y_i)^2}{n}}} = \frac{-1765}{-0,528} = 3341,14$$

Korrelyatsiyaning kritik koeffitsiyentini jadvaldan topish mumkin:

5. p - qiymatni topish quyidagicha amalga oshiriladi:

r-ko'rsatkichning r-qiymatini aniqlash uchun t-qiymatini quyidagi

$$t = \frac{r \sqrt{n-2}}{\sqrt{1-r^2}}$$

n – 2 Styudent mezoni ko'rsatkichi bo'yicha erkinlik darajasi hisoblanadi va u quydagiga tengdir

$$t = \frac{r \sqrt{n-2}}{\sqrt{1-r^2}} = \frac{0,528 \sqrt{3149-2}}{\sqrt{1-0,528^2}} = \frac{0,528 \sqrt{3147}}{\sqrt{0,721}} = 0,849$$

$\alpha = 0,05$ ehtimolida erkinlik darajasini topamiz $df = n - 2 = 8$ va

buni jadvaldan topamiz $t_{\alpha/2, df} = 2,31$.

Taqqoslash: Hisoblab topilgan t-qiymat (1,76) jadvaldan topilgan t qiymatdan kichik bo'lganligi sababli H_0 faraz qabul qilinadi.

Qaror qabul qilish: 95% lik ishonch darajasida emotsional va mantiqiy intellekt ko'rsatkichlari orasidagi o'zaro bog'liqlik mavjud emas ($r = -0,528$; $r > 0,05$).

Mavzu bo'yicha savollar

1. Parametrik ma'lumotlar deb qanday ma'lumotlarga aytiladi?
2. Pirson korrelyatsiyasi qaysi ma'lumotlar uchun qo'llaniladi?
3. Pirson korrelyatsiyasi bo'yicha xulosa qanday chiqariladi?
4. Spirman korrelyatsiyasi qaysi ma'lumotlar uchun qo'llaniladi?
5. Spirman korrelyatsiyasi bo'yicha xulosa qanday chiqariladi?

TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Kricheven A.N, SHikin ye.V, D'yachkov A.G. Matematika dlya psixologov. M. 2003 g.
2. Sidorenko ye.N Metodi matematicheskoy obrabotki v psixologii. Rech', SPb, 2000 g.
3. Nishonova Z.T, Qarshiyeva D.S. "Eksperimental psixologiya" T:2007.
4. Nasledov A.D. Matematicheskiye metodi psixologicheskogo issledovaniya. Analiz i interpretatsiya dannix. SPb., Rech', 2004.
5. Borovikov V. Statistika. Iskustvo analiza dannix na komp'yutere. SPb., 2003.
6. Suxodolskiy G.V. Matematicheskiye metodi psixologii. SPb., 2003.
7. Ermolayev O.YU. Matematicheskaya statistika dlya psixologov. M., 2003.

15-maruza. Regression tahlil

Reja:

1. Mobil jadvallar tushunchasi.
2. Aylantirish maydonchalari yordamida o'zgaruvchilar va statistik ko'rsatgichlarning izchilligini o'zgartirish.
3. Satrlar va ustunlarning o'rinlarini almashtirish
4. Diagrammalar tuzish jarayoni.
5. Diagrammalarni tahrir etish.

Tayanch so'zlar: jadval, satrlar, dasturlar, diagrammalar, o'zgaruvchilar, statistika

Diagrammalar grafiklar deb ham ataladi. Ular elektron jadvallarning ajralmas kismidir.

Diagramma - sonli jadval ko'rinishida berilgan axborotlarni ko'rgazmali namoyish etish usulidir. Ma'lumotlarni diagramma shaklida namoyish etish bajarilayotgan ishni tez tushunishga va uni tez xal qilishga yordam beradi. Jumladan, diagrammalar juda katta xajmdagi sonlarni ko'rgazmali tasvirlash va ular orasidagi aloqadorlikni aniklashda juda foydalidir.

Diagrammalar asosan sonlar bilan ish yuritadi. Buning uchun ishchi jadval varag'iga bir necha son kiritiladi, so'ng diagramma tuzishga kirishiladi. Odatda, diagrammalar uchun foydalanilayotgan ma'lumotlar bir joyda joylashgan bo'ladi. Ammo bu shart emas. Bitta

diagramma ma'lumotlarni ko'p sonli ishchi varaklar va xatto ishchi kitoblardan ham olishi mumkin.

Exselda tuzilgan diagrammalarni joylashtirishning ikki xil varianti mavjud:

1. Diagrammani varakning ichki elementi sifatida bevosita varakka ko'yish. (Bu diagramma joriy kilingan Diagramma deb ataladi.)

2. Ishchi kitobning yangi diagrammalar varag'ida diagramma qo'yish. Diagramma varag'i ishchi kitobning varag'idan bitta diagrammani saklashi va yacheykalari bulmaganligi bilan farq kiladi.

Agar diagramma varag'i faollashtirilsa unda yexcel menyusi u bilan ishlash uchun mos xolda o'zgaradi.

Dnagrammani joylashtirish usullaridan ka'ti nazar Diagramma kurish jarayonini bevosita blshqarish mumkin. Ranglarni o'zgartirish, shkala masshtabini o'zgartirish, to'r (setka) chiziklariga ko'shimchalar kiritish va boshka elementlarni ko'llash mumkin.

Excel diagrammasi ishchi jadval varag'aning ma'lumotlari bilan bevosita bog'liq. Ishchi jadval varag'idagi ma'lumotlar o'zgartirilsa, tezda ularga bog'liq bo'lgan diagramma chiziklari o'zgaradi.

Diagrammalarning bir necha xil turlari mavjud: chizikli, doiraviy, grafik shakldagi va boshkalar. yexsel da diagrammalarning ixtiyoiy turini tuzish mumkin. Ayrim diagrammalar juda murakkab shakllarni ham aks ettiradi, Masalan bargli, xalkasimon va x.k

Diagrammalar hosil kilingandan keyin u o'zgarmas xolatda bo'lmaydi, balki har doim uning shaklini o'zgartirib turish, va maxsus formatlash atributlarini qo'shish, yangi ma'lumotlar to'plami bilan to'ldirish, mavjud ma'lumotlar to'plamini boshka diapozon yacheykalardan foydalanadigan kilib ma'lumotlarni o'zgartirish mumkin.

Boshka grafik ob'yektlar kabi diagrammalarni bir joydan ikkinchi joyga ko'chirish ham mumkin. Uning o'lchamlarini, nisbatlarini o'zgartirish, chegaralarini to'grilash va ular ustida boshka amallarni bajarish ham mumkin. Joriy kilingan diagrammaga o'zgartirishlar kiritish uchun sichqoncha ko'rsatkichining chap tugmasini ikki marta bosish kerak bo'ladi. Bunda diagrammalar faollashib, yexsel menyusi diagrammalar bilan ishlash uchun kerakli buyruqlarni ko'rsatadi Joriy kilingan diagrammalarning asosiy afzalligi shundaki, ularni diagramma tuzish uchun foydalanilgan ma'lumotlar yoniga joylashtirish mumkin.

Aloxida varakda joylashtirilgan diagrammalar butun varakni egallaydi. Agarda bir nechta diagramma tuzmokchi bo'lsangiz, unda har birini aloxida varaklarga joylashtirish maksadga muvofik. SHunda varakdagi diagrammalarning «ko'rinarlilik darajasi» saklanadi. Bundan tashkari bu usul kurilgan diagrammalarni tezda topish imkonini beradi, chunki bu xolda diagramma varag'ining mukova yorligiga mos nomlar berish mumkin.

Diagrammalar ustasi (Master diagramm) bilan ishlash.

Diagrammalar ustasi (Master diagramm) yordamisiz diagrammalarni hosil qilishda yexsel ko'shimcha ko'rsatmasiz, kabul kilingan turini kuradi. Agar Diagrammalar ustasi (Master diagramm) ko'llanilsa, unda

Excel bir nechta turini tanlab olish imkoniyatini beradi Diagrammalar ustasi (Master diagramm) piktogrammasi uskunalar panelida quyidagi ko'rinishga ega.

Diagrammalar ustasi (Master diagramm)ning mulokot darchasining umumiy ko'rinishi quyidagicha:

«Master diagramm» yordamida joriy kilingan diagrammalar kurish uchun quyidagi usullardan foydalaniladi:

- Diagramma uchun kerakli ma'lumotlar ajratib olinadi va «Vstavka-Diagramma» buyruqlari tanlanadi
- Diagramma uchun kerakli ma'lumotlar ajratib olinib, sichqoncha kursatkichi «Master diagramm» piktogrammasiga olib kelinadi va bosiladi

Ma'lumotlarni ajratib olishda diapozonga qator va ustun sarlavxasi kabi elementlarni ham kiritish tavsiya etiladi. Ma'lumotlar ajratib ko'rsatilgandan so'ng Diagrammalar ustasi («Master diagramm») ishga tushiriladi.

Agar «Master Diagramma»ni ishga tushirish oldidan yacheykalar diapozoni belgilangan bulsa, unda diapozon manzili Diapozon maydonchasida hosil bo'ladi Aks xolda diagramma uchun ma'lumotlarni o'z ichiga olgan yacheykalar diapozoni ko'rsatilishi zarur. Diapozonni kursatish ko'lda yoki tugridan-tugri varakda ko'rsatilgan xolda amalga oshirilishi mumkin.

2. Ikkinchi bosqichda tuzilayotgan diagrammaning asosiy ko'rinishini aniklash kerak. Diagrammalarning asosiy ko'rinishlari 15ta bo'lib, ular shartli belgilar, piktogrammalar ko'rinishida keltirilgan.


3. Bu bosqichda tanlab olingan diagrammalarning turli ko'rinishlari ko'rsatiladi.

4. Turtinchi bosqichda ma'lumotlar guruhini tanlab olish (satrda, tugmachada) va kanday ma'lumotlarni sarlavxa sifatida olish kerakligi ko'rsatiladi. Namuna darchasida siz diagrammalar kurinishlarini nazorat kilib borishingiz mumkin.

5. Beshinchi bosqichda nomlar mazmuni va koordinata o'klarining mazmuni aniklashtiriladi.

Aloxida varakda yangi diagramma yaratish uchun malumotlar ajratib olinib, F11 tugmasi bosiladi. Natijada yangi diagramma varag'i hosil bo'ladi va aloxida ko'rsatmasiz yaratiladigan diagramma kurinishi hosil bo'ladi. Diagramma asosiy belgilangan diapozon ma'lumotlaridan tuziladi va bunda Diagrammalar ustasi (Master diagramm) ishtirok etmaydi.

Excel yordamida jadvaddagi ustun va qatorlarda aks eggan sonlar har tomonlama tushunarli va kurinarli bo'lishi uchun diagramma va grafiklar shaklida berishi mumkin. Buning uchun yexcelning Diagramma ustasidan foydalaniladi.


1. Vositalar panelidagi Diagramma ustasi  tugmasini bosing.
2. Kursor kurinishi keladi.
3. D21 katagiga kursorni qo'ying.
4. Sichqonchaning chap tugmasini bosing va ushlab turing.
5. Sichqonchani D21-G26 kataklari belgilanguncha qo'yi ungga karab siljiting.
6. Sichqoncha tugmasini qo'yib yuborish.

Ektranda Master diagramm - shag 1 iz 5 dialog oynasi paydo bo'ladi. Bu kadamda diagrammada aks ettirmokchi bo'lgan ma'lumot kataklaringiz adresini ko'rsatishingiz kerak.

7. Sichkoicha yordamida jadvaldan A7-V14 kataklarini belgilang.

8. Daleye tugmasini bosish

Ekranda diagrammi turini aniklashtirishni surovchi Diagramma ustasi (Master diagramm) ning 2 kadam diilog oynasi paydo bo'ladi.



9. «Gistogramma» tugmasini bosing.

10. Daleye tugmasini bosing.

Ekranda kanday diagramma turini tanlanganiga karab Diagramma ustasining keyingi dialog oynasi paydo bo'ladi. **Mavzu bo'yicha savollar**

1. Diagramma nima?
2. Diagrammaning qanday ko'rinishlari bor?
3. Psixologiyada matematik metodlarni qo'llash qachondan boshlangan?
4. Psixologiyada o'lchov shkalalari qanday?
5. Psixologiya fanida miqdordan sifatga o'zaro o'tish haqida nimalar bilasiz?
6. Matematik metodlarni psixologiyaga qo'llash tajribalari kimlarning izlanishlarda amalga oshirilgan?

Mustaqil ish topshiriqlari: Psixologiyada matematik statistik metodlarni qo'llash mavzusiga doir adabiyotlarni o'qish.

TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Kricheven A.N, SHikin ye.V, D'yachkov A.G. Matematika dlya psixologov. M. 2003 g.
2. Sidorenko ye.N Metodi matematicheskoy obrabotki v psixologii. Rech', SPb, 2000 g.
3. Nishonova Z.T, Qarshiyeva D.S. "Eksperimental psixologiya" T:2007.

4. Nasledov A.D. Matematicheskiye metodi psixologicheskogo issledovaniya. Analiz i interpretatsiya dannix. SPb., Rech', 2004.
5. Borovikov V. Statistika. Iskustvo analiza dannix na komp'yutere. SPb., 2003.
6. Suxodolskiy G.V. Matematicheskiye metodi psixologii. SPb., 2003.
7. Ermolayev O.YU. Matematicheskaya statistika dlya psixologov. M., 2003.

III-semestr

I. 2. AMALIY MASHG'ULOTLAR

1- amaliy mashg'ulot. Matematik statistikaning asosiy tushunchalari. (4 soat)

Reja:

1. Matematik statistika, tavsiflovchi va induktiv statistika tushunchalari.
2. Ko'plik haqida tushuncha.
3. Bosh ko'plik, tanlama va reprezentativlik tushunchalari.
4. O'lchov shkalalari, o'zgaruvchilar va ularning turlari.

***Jihoz:** mavzu bo'yicha misollar va javob varaqasi*

Tadqiqot o'tkazilishi va xulosalar chiqarish rejalashtirilayotgan ko'p sonli kishilar majmui **sinaluvchilar bosh majmui** (yalpi jamlanma) deyiladi. **Yalpi jamlanma (population)** – tadqiqotchini qiziqtiruvchi o'rganilayotgan ob'yektlarning barchasi.

Biror bir reallikni aks ettiradigan har qanday sonlar qatori ko'plik deyiladi. Ko'plikning ikki xil turi mavjud: 1) bosh ko'plik – o'rganilishi dastlab rejalashtirilgan, shartli ravishda mavjud bo'lgan bir katta guruh (populyatsiya); 2) ajratib olingan ko'plik – bevosita o'rganiladigan real guruh (tanlama).

Bosh ko'plik bu o'rganilayotgan barcha elementlarning murakkab jamlanmasi hisoblanadi. **Bosh ko'plik** – bu tadqiqot gipotezasi shakllanishiga asos bo'luvchi ko'pgina barcha ob'yektlar⁷

Tanlanma (sample) – yalpi jamlanma xossalari xususida xulosa chiqarish maqsadida o'rganilayotgan va maxsus usulda saralanib tashkil qilinayotgan yalpi jamlanmaning uncha katta bo'lmagan qismi. YA'ni **tanlanma** – bu sinaluvchilar bosh majmining bir qismi yoki bo'lagi hisoblanadi.

Tadqiqot populyatsiyada emas, tanlab olingan kishilar guruhida o'tkaziladi. Tekshiruv standartlashtirish tanlanmasida o'tkazilib, uning natijalari asosida xulosalar bosh majmuiga nisbatan ham chiqariladi. Baholash ishonarli bo'lishi uchun tanlanma **reprezentativ** bo'lishi, ya'ni uning xususiyatlari bosh majmua xususiyatlariga o'xshash yoki yaqin bo'lishi kerak.

⁷ Наследов А. Д. Математические методы психологического исследования. Анализ и интерпретация данных. Учеб. пос. — СПб.: Речь, 2004. — 392 с.(мазмунидан фойдаланилди)

Statistik amallar	Nominal shkala	Tartib shkalasi	Interval shkala
Moda	Mumkin	Mumkin	Mumkin
Mediana		Mumkin	Mumkin
O'rtacha			Mumkin
Dispersiya			Mumkin
Standart og'ish		Mumkin	Mumkin
O'zaro bog'liqlik koeffitsiyenti		Mumkin	Mumkin
Spirmenning korrelyatsiya koeffitsiyenti			Mumkin
Pirsonning korrelyatsiya koeffitsiyenti			Mumkin
Xi-kvadrat	Mumkin	Mumkin	Mumkin
Mann-Uitnining U-mezoni		Mumkin	Mumkin
t- mezon			Mumkin
ANOVA			Mumkin
Uilokson mezon		Mumkin	Mumkin
Kraskal-Uollesning bir faktorli dispersiya tahlili		Mumkin	Mumkin

TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Kricheven A.N, SHikin ye.V, D'yachkov A.G. Matematika dlya psixologov. M. 2003 g.
2. Sidorenko ye.N Metodi matematicheskoy obrabotki v psixologii. Rech', SPb, 2000 g.
3. Nishonova Z.T, Qarshiyeva D.S. "Eksperimental psixologiya" T:2007.
4. Nemov R.S. Psixologiya. 3 kniga. M-2003 Vlado.
5. Nasledov A.D. SPSS: komp'yuterniy analiz dannix v psixologii i sotsial'nix naukax.2-izd.- SPb., 2007.- 416s.
6. Nasledov A.D. Matematicheskiye metodi psixologicheskogo issledovaniya. Analiz i interpretatsiya dannix. SPb., Rech', 2004.
7. Borovikov V. Statistika. Iskustvo analiza dannix na komp'yutere. SPb., 2003.
8. Suxodolskiy G.V. Matematicheskiye metodi psixologii. SPb., 2003.
9. Ermolayev O.YU. Matematicheskaya statistika dlya psixologov. M., 2003.

2-amaliy mashg'ulot: Excel va SPSS komp'yuter dasturlarida ma'lumotlarni tashkil qilish.(4-soat)

Reja:

1. Windows uchun yexsel dasturining elektron jadvali bilan ishlash.

2. Ma'lumotlarni kiritish va tahrir qilish.
3. Ma'lumotlarni shakllantirish.
4. Excel oynalari. Funksional klavishlar.

***Jihoz:** Komp'yuter texnologiyalari, yexsel dasturi, SPSS dasturi, misollar varaqasi*

